

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI
BUXORO FILIALI**

**«SUV XO'JALIGI VA MELIORATSIYA ISHLARINI
MEXANIZATSIYALASH» KAFEDRASI**

I.S.Hasanov

**MUTAXASSISLIKKA
KIRISH**

FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

**«5450300 - SUV XO'JALIGI VA MELIORATSIYA ISHLARINI
MEXANIZATSIYALASH» TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN**

BUXORO-2014

Sizga tavsiya etilayotgan «Mutaxassislikka kirish» fanidan tayyorlangan ma'ruzalar matni tasdiqlangan dastur asosida ushbu kurs bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy jurnallar, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Buxoro viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalangan holda tuzilgan bo'lib, ushbu fanga doir asosiy tushunchalar va mashg'ulotlar bayon etilgan. Fanni chuqur va mukammal egallash uchun ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Sizga taqdim etilayotgan ma'ruzalar matni fanni o'rganishda, mustahkam bilim egallashda ilmiy va uslubiy yordam ko'rsatadi degan umiddamiz. Ushbu ma'ruzalar matni bakalavr yo'nalishidagi 5450300–Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: Texnika fanlari nomzodi, dotsent I.S.Hasanov

Taqrizchilar: TIMI Buxoro filiali dotsentlari F.Jo'rayev va X. Nuriddinov

«Mutaxassislikka kirish» fanidan 18 soatlik ma’ruzalar mavzulari.

№	Ma’ruzalarning nomi	Soat
1	Kirish.Fanning maqsad va vazifalari. O’zbekiston Respublikasining ta’lim dasturi to’g’risida	2
2	Oliy o’quv yurtlarida o’quv jarayonini tashkil qilinishi va talabalarning haq huquqlari.	2
3	Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti va uning Buxoro filialida malakali bakalavr va magistr mutaxassisliklarini tayyorlash yo’nalishlari to’g’risida	2
4	Ilmiy kutubxonalar, “Axborot resurs markazlari” va ulardan foydalanish.	2
5	Talabalarning o’quv va ilmiy –tadqiqot ishlari, mustaqil ishlarini tashkil etish.	2
6	Mutaxassislar tayyorlashda umumkasbiy fanlarining o’rni.	2
7	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda foydalaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalari.	2
8	Suv xo’jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash sohasi bo’yicha tashkilotlar va korxonalar to’g’risida ma’lumot.	2
9	Respublikamiz ASMda ilmiy texnik taraqqiyot	2
	JAMI:	18

1-MAVZU: Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining ta'lim dasturi to'g'risida.

REJA:

1. Respublikamizda mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida ma'lumotlar.
2. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi haqida tushunchalar.
3. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari.

Agar sohani rivojlantirish strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun u umumiy iqtisodiyot islohotlarining maqsadini e'tiborga olish lozim.

O'zbekistondagi o'zgarishlarning strategik maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish orqali aholining turmush darajasini yuksaltirishdan iborat bo'lib, bozor iqtisodiyoti asoslarini qurishning o'zbek modeli, eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorlikka asoslangan, 1998 -yilning dekabr oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi kontsepsiyasida» to'la aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish kontsepsiyasi bo'yicha agrar soha strategiyasi modelining asosiy negizi - bu ijtimoiy-demografik, ishlab chiqarish va ekologiya vazifalarini bajaruvchi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatga ega ekanligidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrda intilmoqda» nomli dasturiy nutqida mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning strategik ustivor yo'nalishi iqtisodiy va siyosiy sohani erkinlashtirish; demografik davlat qurish maqsadida jamiyatning ma'naviy tomonidan yangilanishi; milliy dastur asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash; xalq moddiy farovonligini muntazam o'sishiga erishishi; jamiyatni isloh qilishning barcha bosqichlarida faol ijtimoiy siyosat yuritish; barqarorlik, milliy xavfsizlik va tinchlik – asosiy osoyishtalik ta'minlashdan iboratligini ko'rsatib berdi. Agrar sohaning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish kerak: mavjud yer – suv resurslaridan samarali foydalanish; qishloqning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish; qishloq joylarida jadal sur'atlar bilan o'sib kelayotgan mehnat resurslarining bandligini oqilona tarzda ta'minlash; tashqi bozorga chiqish maqsadida ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish; fan- texnika yutuqlarini keng joriy qilish; qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarda bozor iqtisodiyoti talablari doirasida ishlash ko'nikmalarini va mulkdorlarni haqiqiy sinfini shakllantirish; agrar sohaning iqtisodiy saloxiyatini kengaytirish. Albatta bu tadbirlarni amalga oshirishda ma'lum bir necha yillar talab qilinadi.

Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilar:

-Qishloqda mulkchilik munosabatlarini, eng avvalo xususiy mulkchilikni rivojlantirish va mustahkamlash, qishloq xo'jaligida agrar va iqtisodiy

munosabatlarini isloh qilishning asosiy yo'nalishi sifatida haqiqiy mulkdor sinfini shakllantirish;

-dehqonlarda yerga egalik hissini uyg'otish, dehqonlarni o'z mehnati natijalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishni ta'minlash, qishloqda mulkiy paylarni joriy etish asosida mulkiy munosabatlarni takomillashtirish;

-har xil turdagi tovar qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning (yirik va mayda tovar xo'jaliklari) tashkiliy huquqiy ishlarini-qishloq xo'jalik fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish. Qishloq xo'jalik korxonalarimizdaning huquqini va iqtisodiy mustaqillikni kengaytirish;

- dehqonlarning o'z mehnati va butun qishloq xo'jalik korxonasi faoliyatining pirovard natijalaridan manfaatdorligini oshirish. Bunga mehnatni tashkil etishning oilaviy pudratiga asoslangan ichki xo'jalik tizimi joriy etish yo'li bilan, etishtirilgan mahsulotlarga hisob kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish va mulkiy paylar bo'yicha dividend to'lash bilan erishiladi;

-Tuproq eroziyasiga qarshi va meliorativ tadbirlarni o'tkazish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarning ishlab chiqarishning sanoatga asoslangan eng zamonaviy texnologiyasini joriy etish hisobiga dehqonchilik madaniyatini, tuproq unumdorligini oshirish;

-Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning samarali yuritishning asosiy mezon sifatida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini, qoramol va parandalar maxsuldorligini oshirishni ta'minlovchi zamonaviy agrotexnika qoidalari va talablariga rioya etish;

-Mamlakatimizda paxtachilik, don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlar selektsiyasi va urug'chiligi tizimini rivojlantirish, mahalliy tuproq iqlim sharoitiga mos rayonlashtirilgan navlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish, chorvachilikda naslchilikni yaxshilash;

- Qishloq va suv xo'jaligida eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash. Yuqoridagi vazifalarni hal etishda mutaxassis kadrlarining roli kattadir.

"Ta'lim" to'g'risidagi qonun asosida mutaxassislar tayyorlash Respublikamizning barcha viloyatlari va tumanlar, hududlar shart-sharoitidan kelib chiqib marketing asosida amalga oshiriladi. Shularni inobatga olib Respublikamizning barcha tumanlarida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etildi.

Zamon talabidan kelib-chiqib markaziy va viloyat oliygohlarida yangi ixtisosliklar ochilib, jahon andozasiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarida mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini tashkil etishga kirishildi.

O'zbekiston oliy maktab tizimi 76 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 17 universitet va 59 institutni o'z ichiga oladi, 17 universitetning 13 tasi O'zbekiston mustaqillikka erishgach tashkil topdi. Bundan tashqari 2000 yilda Islom davlat universiteti tashkil qilinib ularni safi yana birtaga ko'payadi.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim negizida asoslanadi, hamda ikki (bakalavr va magistratura) bosqichga ega. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar

qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavr – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy ta'lim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limidir. Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

MAGISTRATURA – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limidir. Magistr'larga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

2 5450300-Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash – ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati kunduzgi bo'limda 4-yil davomida olib boriladi. O'qishni tugallab, olinadigan malakaviy daraja - bakalavr darajasidir.

" Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash " ta'lim yo'nalishi bakalavrining kasbiy faoliyat sohasi quyidagicha bo'ladi:

Kasbiy faoliyat obye'ktlari- ta'lim jarayonida mos kasb- hunar kollejlariidagi o'quv- tarbiya jaroyoni ishlab chiqarishda melioratsiya va qurilish mashinalari va jihozlari hamda ulardan foidalanish jarayoni, texnik xizmat ko'rsatish va tamirlash korxonalaridagi ishlab chiqarish va foydalanish texnologik jarayaonlari

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari :

- Ilmiy va ilmiy –tadqiqot faoliyati ;
- Ishlab chiqarish sohasi ;
- Yig'ish-sozlash ishlari;
- Foydalanish va servis xizmati ko'rsatish;
- Texnologik;
- Loyihaviy – konstruktorlik;
- Tashkiliy- boshqaruv;
- O'MKHT tizimida pedagogic faoliyati;

Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyati kabilarni o'z ichiga oladi
Bakalavr tizimi tomonidan aniqlanadi. tayyorlanadigan kasbiy faoliyatining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5450300- suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va iqtisodlikning tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalar belgilanadi:

Ilmiy va ilmiy - tadqiqot faoliyati :

-o'tkazilayotgan ilmiy -tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algaritmlar, metodlar, dasturiy yechimlar, instrumental vositalarni tadqiqot qilish va ishlab chiqarish;

- namunaviy metodika va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy - texnikaviy hisobotlar va tushuntirish harakatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obrazlarni ishlab chiqish, referatlar va bibleograflarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-texnikaviy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyati:

Melioratsiya va qurilish mashinalarini va ularning ishchi organlarini takomillashtirish, unifikatsiyalash maqsadida konstruktorlik takliflarini ishlab chiqish texnika va texnologiyalar uchun uskunalar, moslamalar va zaruriy jihozlarni tanlash, bajariladigan ishlarni sifatini kafolatlovchi yangi texnologik jarayonlar uchun mashina va asbob-uskunalar qism va detallarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

- suv xo'jaligida melioratsiya va qurilish mashinalari va qurilmalaridan foydalanish, ularga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash vositalarini loyihalash ;

Ishlab chiqarish texnologik faoliyati:

- mashinalar parkidan foydalanish va boshqarish bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va butlash (komplektlash) va moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish hamda suv xo'jaligi tashkilotlarida

- foydalaniladigan mashinalarni ta'mirlash va texnik xizmat (servis) ko'rsatishni tashkil etish ;

- mashinalarni yuqori unumdorlik bilan ishlashni ta'minlovchi usullarni ishlab chiqishda tashkilatchi sifatida faoliyat yuritish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;

Tashkiliy-boshqarish faoliyati:

- melioratsiya va qurilish mashinalaridan foydalanuvchi tashkilotlarda ishlab chiqarish mexanigi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish tashkilotlarining konstruktorlik byurosi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash va sinov sexida usta , katta usta va boshqalar; -ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axbarot texnologiyalari tizimini yaratish va ularni ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringgi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (pedagogik tayyorgarlikdan so'ng):

- O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalari tayyorgarlik yo'nalishida tutilgan o'quv fanlar bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalari tayyorgarlik yo'nalishida tutilgan o'quv fanlar bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulatlarini jumladan o'quv ustaxonalarini, o'tkazish;
- zamonaviy axbarot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yich darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarini shakllantirish va tuzish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakillar tizimida o'z -ozini muntazam takomillashtirib boorish.

Ta'limni davom ettirish imkoniyatlarini

Bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin turdosh ta'lim yo'nalishlarining magistraturada mutaxassisliklari bo'yicha ta'limining vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadigan ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirish mumkin.

Pedagogik faoliyatni olib borganda o'z malakasini har uch yilda oshirib turishi kerak.

3. Sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va bu yerlarda qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l va barqaror hosil olinishini ta'minlashda foydalaniladigan texnika va texnologiyalarni qo'llashda «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiylash" ixtisosligi bo'yicha diplomi mutaxasislarning ma'suliyati yuqoridir.

«Mutaxassislikka kirish» fanini o'qitishdan maqsad bo'lajak mutaxassislarni oliy bilimgohta puxta bilim olishlari uchun dastlabki umumiy tavsiyalarni berish, ularni sohaning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish, bo'lajak ish joylari va mutaxassislarga qo'yiladigan talabalar haqida tushunchalar berishdan iborat.

«Mutaxassislikka kirish» fanining o'quv rejasiga kiritilishi mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish talablaridan kelib chiqqan. Bu fan bo'lajak mutaxassislarni quyidagi mazmunda bilim saviyasini shakllantirish vazifalari bajaradi.

1. «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiylash » mutaxasisligi haqida tushuncha. Mutaxassislarga qo'yiladigan talab, bo'lajak ish joylari haqida ma'lumotlar berish.

2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida melioratsiyani rivojlantirish to'g'risida hukumat qarorlarini talabalarga asoslab berish.

3. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonining asosiy shakllari. O'quv jarayonini tashkil etilishini tushuntirish.

O'quv mashg'ulotlar, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari laboratoriya darslari. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari ularning maqsadi va vazifalari.

Kurs ishlari va loyihalari. Talabalarning bilimlarini baholashning reyting tizimi va test usuli. Davlat attestatsiya sinovlari va malakaviy bitiruv ishlari haqida umumiy ma'lumot berish.

4. Melioratsiya haqida umumiy tushunchalar. Yerning melioratsiyalashga ehtiyoji. Melioratsiya usullari va vositalari hamda ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan texnikalar va texnologiyalar haqida tushunchalarni shakllantirish.

5. O'zbekiston Respublikasida melioratsiyaning rivojlanish tarixi. Markaziy Osiyo hududida sun'iy sug'orishning paydo bo'lishi. Feodalizm davrida melioratsiya va irrigatsiyaning rivojlanishi. Mustamlakachilik davrida irrigatsiyaning rivojlanishi. Paxtachilikni yuksaltirish uchun kurash yillarida suv xo'jaligi va melioratsiyaning rivojlanishi. O'zbekistonda suv xo'jaligi va melioratsiya rivojlanishida mutaxassislarining roli.

6. O'zbekiston suv manbalari suv resurslari va ulardan foydalanish sug'orish suvining sifatiga qo'yiladigan talablarni ko'rsatib o'tish.

7. O'zbekistonning yer resurslari va ulardan foydalanish. Yerlarning meliorativ holati va uni nazorat qilish, yerlarni sho'rlanish va botqoqlanishiga qarshi kurash. Tuproq eroziyasiga qarshi kurash choralarini.

8. Melioratsiya va atrof-muxitni muxofaza qilish. Meliorativ tadbirlarni ekologik holatiga ta'siri. Tuproq va suv zaxiralarini muxofaza qilish haqida davlat qonunchiligini ko'rsatib o'tish.

ADABIYOTLAR: 1. 2. 3. 4. 5. 6. 7.

Tayanch tushunchalar:

- | | |
|--------------------------------|--------------------------------|
| 1. Melioratsiya | 7. Servis xizmati |
| 2. Texnologik | 8. Iqtisodiy soha |
| 3. Malakaviy daraja | 9. Nazarot inspeksiyasi |
| 4. Kasbiy faoliyat ob'yektlari | 10. Magistratura mutaxasislari |
| 5. Ilmiy tadqiqot | 11. Suv resurslari |
| 6. Loyiha qidiruv | |

SINOV SAVOLLARI:

1. Agrar sohani rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar.
2. Respublikamizda mutaxassislar tayyorlash uchun mavjud o'quv yurtlari.
3. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishiga bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi qanday bo'ladi?
4. Soha bakalavrining kasbiy faoliyati ob'yektlariga nimalarni kiritish mumkin?
5. Soha bakalavri qaysi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat ko'rsatishi mumkin?
6. Soha bakalavri qanday mutaxassisliklar bo'yicha magistraturada o'qitishni davom ettirishi mumkin?
7. «Mutaxassislikka kirish» fanning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

TEST SAVOLLAR:

1.Hozirgi paytda qishloq xo'jalik mahsulotlari mamlakatimiz valyuta tushum fondining qancha qismini tashkil qilayapti?

- A) 66% B) 45% C) 55% D) 93%

2.Mamlakatimizda ichki mahsulotning qancha qismi agrar tarmoqqa to'g'ri keladi?

- A) 4/1 B) 2/1 C) 3/1 D) 6/1

3.Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish uchun qanday qonunlar qabul qilindi?

- A) "Yer kodeksi", Qishloq xo'jalik kooperativi", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risida
B) "Yer to'g'risida", Kooperatsiya to'g'risida", "Ijara to'g'risida", " dehqon xo'jaligi to'g'risida",
C) "Fermar xo'jaligi to'g'risida", "Shaxsiy tomorqa xo'jaligi to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida".
D) "O'zqishloqxo'jalik mash holding" kompaniyasi to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida", " dehqon fermer xo'jaligi to'g'risida".

4."Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiylash" ta'lim yo'nalishi kodini ko'rsating?

- A) 5. 45. 03.00 C) 5.54.07.00
B)5.54.08.00 D)5A 54.07.01

5."Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiylash" yo'nalishi bakalavrining kasbiy faoliyati ob'yektlari qaysilar?

A) ta'lim jarayonida mos kasb- hunar kollejlardagi o'quv- tarbiya jaroyoni ishlab chiqarishda melioratsiya va qurilish mashinalari va jihozlari hamda ulardan foydalanish jarayoni, texnik xizmat ko'rsatish va tamirlash korxonalaridagi ishlab chiqarish va foydalanish texnologik jarayonlari

B) Sug'orish maydonlari, sug'orish texnikalarini ta'mirlash korxonalari.

C) Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi nasos stantsiyalari, qurilish ob'yektlari

D)Remon servis xizmati korxonalari, nasos stantsiyalari, Sug'orish ob'yektlari.

6."Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiylash " yo'nalishi bakalarlari uchun nechta mutaxassislik bo'yicha magistratura mavjud?

- A)4ta B)5 ta C)7 ta D)2 ta

7.Birinchi bor ishga qabul qilingan bakalavrlar ish bilan ta'minlovchilarning o'quv markazlariga qancha muddatda maxsus dasturlar bo'yicha o'qitilishi mumkin?

- A)5 oydan 1 yilgacha
B)1 yildan 3 yilgacha
C)2 oydan 2 yilgacha
D)1 oydan 6 oygacha

2-MAVZU:Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil qilinishi va talabalarni haq huquqlari.

Reja:

1. Oliy o'quv yurtidagi taxsil olish shakllari. Ma'ruzalar, tajriba va amaliy mashg'ulotlar, kurs va bitiruv malakaviy ishlari va maslahatchilar. O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti haqida tushuncha.
2. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimi va test usuli, yakuniy Davlat attestatsiya sinovi haqida.
3. "Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" yo'nalishi bakalavr tayyorlashni Davlat ta'limi standarti.

Hozirgi paytda mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishning ikki xil shakli mavjud ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (sirtqi). Har ikkala o'quv shaklida ham talabalarga nisbatan talab bir xilda qo'yiladi, ya'ni mutaxassislik standart o'quv rejalarida ko'rsatilgan barcha fanlarni puxta egallashlari hamda o'qigan fanlarni mustahkamlash uchun o'quv, ishlab-chiqarish, texnologik, pedagogik va dala amaliyotlarni sifatli o'tkazib Davlat attestatsiya sinovlari va bitiruv malakaviy ishlarni muvaffaqiyatli topshirgach ularga bir xil maqomdagi Bakalvr yoki magistrlik darajali davlat diplomi beriladi.

Tahsil olish shaklidan qat'iy nazar har ikkalasida ham fanlarni puxta egallash uchun fanlarni xususiyatidan kelib chiqib, ma'ruza, tajriba, amaliy seminar, mustaqil ta'lim turlari mavjud. Talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish uchun kurs ishi va loyihalari bajartiriladi. Oxirgi o'quv bosqichini tugallash arafasida siyosiy, xorijiy tillardan va mutaxassislik fanlardan Davlat attestatsiya sinovi va Bitiruv malakaviy ishlarini himoya qiladilar.

Ma'ruzalar tajribali professor o'qituvchilar tomonidan o'qiladi va har bir ma'ruza matni kafedra va kutubxonalarda mavjud bo'ladi. Har bir o'tilgan ma'ruzani yoki o'qituvchi tavsiya etgan o'qish mavzularini talaba ma'ruzani tinglagach yana qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib o'z daftariga bayon qilib oladi va o'qib o'rganadi.

Tajriba mashg'ulotlari bir nechta ma'ruzalar o'tilgach o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun laboratoriya sharoitida tajriba o'tkazilib natijasi hisobot tariqasida himoya qilinadi.

Amaliy darslar ham aniq fanlar uchun masalan matematika, fizika, kimyo va hokazolarda misol masalalar yechiladi. Mutaxassislik fanlarda ayrim jarayonlari amaliy bajarib topshiriladi. Masalan:mashinasozlik texnologiyasi fanida stanoklar buyumlar yasash, yo'nish, tozalash, pardoqlash va hokazo yoki mashina remonti fanida. Dvigatelni yig'ish, komplektlash va hokazo.

Seminar darslari ko'pincha gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan bajariladi. Bunda talaba o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib matn ko'rinishida yozib keladi va o'qituvchiga himoya qiladi.

Mustaqil ta'lim darslarida talabalar o'zlari o'qituvchi tomonidan berilgan mavzular bo'yicha mavjud adabiyotlardan foydalanib o'rganadilar va dars jarayonida yana shu mavzuni mustahkamlaydilar.

O'quv jarayonining bosqichlari oxirida yoki o'quv jarayoni o'rtalarida yuqorida ko'rsatilgan amaliyot turlarini o'quv rejasiga asosan bajaradilar. Amaliyotga chiqishdan oldin talabalarga amaliyot rahbari amaliyot maqsadini tushuntirib amaliyotni o'tkazish rejasini taqdim etadi va rahbar bevosita amaliyotni borishini nazorat qilib boradi. Amaliyot tugagach talabalar amaliyotni rasmiylashtirishga oid barcha hujjatlarni kundalik hisobot, tavsifnoma va boshqa tegishli ma'lumotlarni kafedralarga topshiradilar.

Kurs ishi va kurs loyihalari o'quv rejasida ko'rsatilgan bosqichlarida o'quv jarayonida har bir talaba uchun alohida mavzu bo'yicha bajariladi va kafedra qarori bilan komissiya oldida himoya qilinadi.

2. Ma'lumki hozirgi paytda respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi va test usuli joriy etilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 8 iyundagi 194-raqamli buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi namunaviy nizomi asosida barcha oliygohlarda talabalar bilimi quyidagicha baholanadi:

1. Har bir fandan maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan auditoriya dars miqdoriga teng deb qabul qilinadi ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, seminar, tajriba, mustaqil ta'lim olish uchun ajratilgan soat yig'indisidan iborat.

2. Barcha fandan maksimal reyting bali nazorat turlariga quyidagicha taqsimlanadi.

Joriy baholashga - 30%

Oraliq baholashga - 40%

Yakuniy baholashga - 30%

Joriy baholash - laboratoriya, tajriba, seminar darslari asosida har 2...8 soatda bir marta dars jarayonida o'tkaziladi. Oraliq baholash – o'tilgan ma'ruzalar asosida har 16...20 soatda dars jarayonidan tashqari vaqtda o'tkaziladi.

Yakuniy baholash o'quv jarayoni bosqichining 1 yoki 2 davrida fan uchun ajratilgan soat tugagandan keyin ma'ruza, amaliy, tajriba darslari asosida yoki yozma ravishda o'tkaziladi.

3. O'quv rejasiga ko'ra fan faqat ma'ruzadan iborat bo'lsa yoki amaliy, tajriba, seminar darslar miqdori 8 soatdan ko'p bo'lmasa unda joriy baholash o'tkazilmay eng yuqori ballning 70% li oraliq baholashga ajratiladi.

O'quv rejasiga ko'ra fan faqat amaliy, tajriba, seminar va mustaqil ta'lim darslardan iborat bo'lsa va ularning miqdori 8 soatdan ko'p bo'lmasa unda oraliq baholash o'tkazilmay eng yuqori ballning 70 % ti joriy baholashga ajratiladi.

4. Oraliq baholash fan xususiyatiga qarab savol javob, referat, diktant, insho, chizma, rasm, yozma ish test kabi ko'rinishlarda o'tkaziladi.

5. Har bir fan bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichi semestr davomida barcha nazorat turidan maksimal ballning necha %ni olganiga qarab quyidagicha aniqlanadi.

86-100 % (a'lo),
71-85 % (yaxshi),
55-70 % (qoniqarli),
55 % dan kam (qoniqarsiz).

Semestr davomida to'plagan bali 55 % dan kam bo'lsa, talaba qoniqarsiz o'qiyotgan, ya'ni akademik qarzidor hisoblanadi.

6. Talabani o'quv, ishlab chiqarish va ishlab chiqarish amaliyotdagi faoliyati uchun 100 ball hisobidan baholanadi.

Amaliyotning yuqori bali quyidagicha taqsimlanadi:

o'quv ishlab chiqarish amaliyotida,

- mutaxassislik fanlarga maksimal balining 90 %
- amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirishga maksimal ballning 10 %.

7. Reyting balini hisoblashda talabani dars mashg'ulotlaridagi faolligi mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondasha olishi, o'quv mehnat intizomiga amal qilish hisobga olib JB va OB ning har biriga ajratilgan ballning 10% gacha qo'shish mumkin.

8. Bitiruv malakaviy ish (loyiha) uchun eng yuqori 100 ball , kurs ishi va loyihasi uchun ham maksimal 100 ball deb belgilanadi.

9. Akademik talabani qayta baholashda YB ko'rinishda o'tkazilib, unga maksimal ballning 30 % ajratildi. Qayta baholashda olgan ballni JB, OB, YB dan to'plagan baliga qo'shganda maksimal ballning 55 % ga etsa, talaba shu fandan o'zlashtirgan hisoblanadi, aks xolda o'zlashtirmagan hisoblanib, rektorning buyrug'i bilan oliygohdan chetlashtiriladi.

4. 5450300 " Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash " ta'lim yo'nalishining namunaviy o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Bu yo'nalish bo'yicha o'qitishning kunduzgi formasida o'qitishning davomiyligi 4 yil. Kvalifikatsion akademik daraja - bakalavr. Bu bakalavr faoliyati ishlab-chiqarish iqtisodini ratsional boshqarish va ijtimoiy rivojlanish maqsadida davlat aksioner va xususiy firmalari ilmiy ishlab chiqarish uyushmalari, ilmiy konstruktorlik va loyihalash tashkilotlarini boshqarish sistemalarining ishini analiz qilishga qaratilgan.

Bakalavr quyidagilarga tayyorlangan bo'lishi kerak:

- fundamental va maxsus tayyorgarligiga mos boshqaruv kasbiy tashkiliy boshqaruv iqtisodiy, loyiha analitik va aniq izlanish faoliyatiga ;
- Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash yo'nalishi bo'yicha magistraturada o'qishga ;
- bakalavr belgilangan tartib bo'yicha ta'lim beruvchi tashkilotlarda ishlashi mumkin;

Kvalifikatsion xarakteristika davlatning normativ hujjati hisoblanib quyidagilarni belgilaydi:

- yo'nalishi bo'yicha bakalavrni kasbiy joylashtirish va ishlatish shartlarini;
- mutaxassislikka kvalifikatsion talablar va talablarga mos o'qitish jarayonining mazmuni;

- oliy o'quv yurti bitiruvchilarining kvalifikatsion talablarga javob berishning baholash kriteriyasi;
- oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining tayyorgarligi sifati va ularni ishlatish uchun javobgarlik.

Kvalifikatsion xarakteristika shu profil bo'yicha mutaxassislarga prognozlash natijalarini va ularni tayyorlashni davlat rejalarini hisobga oladi, hamda oliy kasbiy ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari Mehnat vazirligining mansablar klassifikatorini tuzish uchun ishlatiladi.

Mutaxassisni tayyorlash va undan foydalanish.

Mutaxassis – suv xo'jaligi bakalavri iqtisodiyotning barcha sohalarida ilmiy izlanish va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyor bo'lishi kerak.

Mutaxassis davlat aksionerlik, xususiy firmalarning boshqarish sistemasida ilmiy, konstruktorlik, loyihalash tashkilotlarida, davlat boshqarish organlarida ratsional iqtisodiy ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish maqsadida ishlatilishi mumkin.

5450300- "Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy ta'lim tayyorgarligi vaqtini 4 yil kunduzgi ta'lim formasiga mo'ljallangan.

Oliy o'quv yurtida jami o'qish jarayoni 204 hafta. Talabaning o'qish nagruzkasi haftasiga 54 soatni tashkil qiladi, ulardan auditoriya mashg'ulotlari 36 soatdan ortmaydi.

Ushbu yo'nalishdagi Davlat ta'lim standartlari respublikamizda yagona bazaviy institut hisoblangan Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida ishlab chiqiladi.

Talabaning huquq va vazifalari.

O'qish davrida hamma talabalarga quyidagi huquqlar beriladi.

- Oliy o'quv yurtlarning laboratoriyalari auditoriya kabinetlari qiroatxonalari, axbarot resurs markazlari, hisoblash markazlari o'quv ilmiy markazlari hamda sport bazalari va inshootlari va boshqa jixozlardan foydalish.
- Institutda bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga qatnashishi.
- Jamoat tashkilotlari orqali o'quv va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish maqsadlari va hamda talabalarni davomati mehnat va o'quv intizomi va stipendiya belgilash va boshqa masalalarning hal qilishda qatnashish.

Talabaning vazifalari quyidagilardan iborat.

- Majburiy o'quv darslariga qatnashish va o'quv rejasi va dasturda belgilangan barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
- Tanlangan ixtisosligi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash.
- O'zini ma'naviy siyosiy ilmiy va madaniy darajasini oshirib borish.
- Ommaviy siyosiy va tarbiyaviy ishlari bo'yicha tashkilotchilik ko'nikmalarini egallash.
- Ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish
- Oliy o'quv yurtining va talabalar yotoqxonasining ichki tartib qoidalarining to'liq bajarilishi.

Talaba quyidagi sabablarga ko'ra institutdan chetlashtirishi mumkin:

- fanlardan o'zlashtira olmaganligi uchun;
- o'quv intizomini, institut ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun (70 soatdan ortiq dars qoldirilganligi sababli) ;
- o'z xohishiga ko'ra;
- Kasalligi tufayli.

Institutdan chetlashtirilganlar bir bosqichga qayta tiklanmaydi. Yuqori bosqichlarga faqat 10 oy amaliy ish stajiga ega bo'lgandan keyin shu paytdan beriladigan xarakteristika yoki kasallar uchun vrachlik maslahat komissiyasining (VKK) ma'lumotnomasi asosida qayta tiklanadi.

Institutda qayta tiklanishga 5 yil davomida ruxsat beriladi.

Bir institutdan boshqa institutga o'qishni ko'chirish faqat vazirlar mahkamasiga maxsus komissiya ruxsatnomasi bilan amalga oshiriladi.

Kunduzgi bo'limdan sirtqi bo'limga o'tish masalasini institut rektori hal qiladi.

Hamma talabalar stipendiya huquqidan foydalanadilar. Stipendiya berish differentsiyalashgan holda amalga oshiriladi.

Stipendiyalar bir yilda ikki marta har bir semestr yakunida fanlar bo'yicha to'plagan reyting ballari asosida belgilanadi.

Birinchi bosqichning birinchi semestri davomida davlat granti va shartnoma asosida kirgan talabalar uchun bir xil ,ya'ni o'rta miqdorida stipendiya belgilanadi. Oliy o'quv yurtining har bir talabasiga talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi beriladi.

Talabalik guvohnomasi - talabaning shaxsini tasdiqlovchi nomlangan hujjatdir.

Reyting daftarchasi - talabaning har bir o'tilgan fan bo'yicha o'zlashtirishni belgilab borish tabeli hisoblanadi. Unda institutni bitirib chiqqancha hamma fanlar bo'yicha reyting ballar natijalari yozib boriladi. O'qish tamomlagandan so'ng talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi institut ma'muriyatiga topshiriladi va unga bakalavrlilik darajasi beriladi.

Sinov savollari:

1. Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida tahsil olish shakllari haqida ma'lumotlar.
2. Oliy o'quv yurtlarida fanlarni o'rganish uchun dasr turlari va ularni o'tkazish tartibi.
3. 5450300 "Suv xo'jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat standarti.
4. Oliy o'quv yurtlarida kurs va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish tartibi.
5. Davlat attestatsiya sinovi va bitiruv malakaviy ishlarini o'tkazish tartibi.
6. Malakaviy va bitiruv oldi amaliyotlarni o'tkazish tartibi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Kasbiy ta'lim davlat ta'lim standarti. mutaxassis kadr tayyorlash uchun tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan me'yyoriy hujjat, unda minimal o'quv bosqichlari va u bosqichlarda o'rganish lozim bo'lgan fanlar turi, soat miqdori, amaliyotlar turi, soat miqdori, ta'lim muddati va boshqalar. Ushbu standartlar asosida namunaviy o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

TEST SAVOLLARI:

2.1. Oliy O'quv yurtlarida ta'lim olishning necha xil shakli mavjud va ular qaysilar?

- A. 3 xil. Kunduzgi, sirtqi, kechgi.
- B. 4 xil. Shartnoma, grant, kunduzgi, sirtqi,
- C. 2 xil. Kunduzgi, sirtqi.
- D. 1 xil. To'lov-shartnoma.

2.2. O'qishni tugatgach talabalar nimaga ega bo'lishadi?

- A. o'z mutaxassisligiga ko'rsatilgan diplom.
- B. Shaxodatnoma va sertifikat.
- C. Maxsus guvohnoma.
- D. Oliy ma'lumot haqida ma'lumotnoma.

2.3 Dars jarayonlariga nimalar kiradi?

- A. Ma'ruza, Laboratoriya, Amaliy dars, Seminar, Mustaqil ta'lim.
- B. Kurs ishi, kurs loyihasi, Bitiruv malakaviy ishi, ijodiy ish, referat.
- C. Kundalik hisobot, Yozma ish, ma'ruza, matn tahlili.
- D. Barchasi to'g'ri.

2.4. Talabalar bilimi oliy ta'limda qaysi usulda tekshiriladi?

- A. Faqat yozma ish .
- B. Baho qoyish sistemasi.
- C. Faqat og'zaki so'rov.
- D. Reyting tizimi va test usuli.

2.5. Har bir fandan maksimal ball reyting ko'rsatkichi qaysi soat miqdoridan aniqlanadi?

- A. Ma'ruza va laboratoriya soatlaridan.
- B. Mustaqil ta'lim maksimal soatidan.
- C. Ma'ruza soatlari miqdoridan.
- D. O'quv rejadagi fan uchun ajratilgan umumiy dars soatlar miqdoridan.

2.6. Reyting nizamiga asosan necha xil va qanday nazoratlar o'tkaziladi?

- A. 2 xil. Yozma va og'zaki.
- B. 3 xil. Test, seminar va kurs.
- C. 3 xil Joriy, oraliq va yakuniy.
- D. 4 xil. Yozma, og'zaki, test va kurs nazoratlari.

2.7. Joriy va oraliq nazoratlar har necha soatda bir marta olinadi?

- A. Joriy 2-8 soatda, oraliq, 16-18 soatda.
- B. Joriy 6-10 soatda, oraliq 18-20 soatda.
- C. Joriy 3-4 soatda, oraliq 30 soatda.
- D. Joriy va oraliq bir vaqtda 12 soatdan so'ng.

2.8. Nazoratlar umumiy maksimal balning qanchadan qismiga to'g'ri keladi?

- A. J.N-40%, O.N-30%, Y.N-30%.
- B. J.N-30%, O.N-30%, Y.N-40%.
- C. J.N-25%, O.N-50%, Y.N-25%.
- D. J.N-70%, O.N-20%, Y.N-10%.

2.9. O'zlashtirish ko'rsatgichi qanday belgilanadi?

- A. 55% dan kam-qoniqarsiz. 55-70%-qoniqarli. 70-90% yaxshi. 90-100% a'lo.
- B. 55% gacha-qoniqarsiz. 55-70% qoniqarli, 71-85% yaxshi. 86-100% a'lo.
- C. 45% gacha qoniqarsiz. 46-65% qoniqarli. 67-88% yaxshi. 89-100% a'lo.
- D. 50 % gacha-qoniqarsiz. 51-70% qoniqarli. 71-85% yaxshi. 86-100% a'lo.

2.10. Oliy ta'lim tizimining asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatiga nima kiradi?

- A. Davlat ta'lim standartlari.
- B. Davlat talablari.
- C. O'quv rejalari.
- D. Namunaviy o'quv fan dasturlari.

2.11. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari "Asosiy qoidalari" tasdiqlangan...

- A. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan;
- V. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan;
- S. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan;
- D. Rektorlar kengashi tomonidan;

2.12. Bakalavriat yo'nalishi Davlat ta'lim standarti qachon kuchga kiradi?

- A. Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgandan keyin.
- B. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i chiqqan.
- C. O'z DAB. Standartda ro'yxatdan o'tgandan keyin.
- D. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi muvofiqlashtiruvchi kengash qaroridan so'ng.

2.13. Davlat ta'lim standarti qachon tasdiqlangan?

- A. 16.08.2001. № 343.
- B. 21.12.1999. № 379.
- C. 29. 05.2000 № 208.
- D. 15.11.2000. №161/A

3-MAVZU: TIMI va TIMI BF da malakali bakalavr va magistr mutaxassislarini tayyorlash yo'nalishi to'g'risida.

Reja:

1. Bakalavr va magistr tayyorlashda davlat o'quv standart rejalari va ularni bajarilishida oliy o'quv yurtlarining vazifalari.
2. Rektorat, dekanat, kafedra va talabaning asosiy vazifalari hamda huquqlari.
3. Talabaning oliy o'quv yurtida kompleks faoliyati tarkibining mohiyati, o'quv jarayoni, talabaning ilmiy to'plamlar ustida mustaqil ishlashini rivojlantirish, ularda tadqiqot ishlariga bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish (tanlangan mavzu bo'yicha referatlar tuzish, texnikaviy kuzatuvchanlikni rivojlantirish TIJ va anjumanlarda qatnashishligi haqida)..

1. Bakalavr va magistr mutaxassislarini tayyorlash uchun eng avvalombor ularni davlat standart o'quv rejalari ishlab chiqiladi va Respublika o'quv uslubiy va vazirliklar tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi. Biz o'tgan mavzularimizda "Suv xo'jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" ta'lim yo'nalishi davlat standartlari bo'yicha tushunchaga ega bo'ldik. Oliy o'quv yurtlarida shu soha bo'yicha mutaxassis tayyorlash uchun sohaga tegishli moddiy texnika bazasi va mutaxassis pedagogik kadrlar hamda ilmiy potensial mavjud bo'lishi shart. Yuqoridagi imkoniyatlar bo'lsa kafedra, fakultet ochib imkoniyatdan kelib chiqib mutaxassislar tayyorlash mumkin. Mutaxassisliklar o'quv rejalari to'liq amalga oshirish uchun rektorat vazirlik roziligiga asosan kafedra va fakultetlarni tashkil qiladi hamda mutaxassis kadrlar jalb qiladi. Moddiy texnika bazasini boyitishga amaliy yordam ko'rsatadi.

2. Rektorat rejaga binoan mutaxassislarni test asosida o'qishga qabul qiladi. Yil davomida hudud bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan talabni marketing asosida o'rganib kelgusi o'quv yillari uchun qabul rejalari ishlab chiqib vazirlikka taqdim etadi. Bundan tashqari fakultet va kafedralarni ish faoliyatini nazorat qilib tegishli qarorlar ishlab chiqib uni amalga oshiradi. Fakultet va kafedralarga amaliy yordam ko'rsatadi. Oliygo'hrni rektor boshqaradi. Uning sohalar bo'yicha bir nechta muovnlari bo'ladi. Fakultetni bevosita dekan boshqaradi. Uning ham sohalar bo'yicha muovnlari bo'ladi. Fakultet tarkibidagi bir nechta kafedralari mavjud bo'ladi. Mutaxassislar asosan kafedralarda tayyorlanadi. Kafedralar standart o'quv rejalarni qayta ishlab chiqib mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda 10-15% gacha fanlar hajmini o'zgartirishga haqlidir. Kafedrani bevosita kafedra mudiri boshqaradi. Kafedra fanlarni o'qitilishi sifatiga asosiy mas'ul hisoblanadi. Kafedra o'qituvchilari ish yuklamalarida ko'rsatilgan kafedra mudiri va dekan tasdiqlagan dars yuklamasiga asosan sifatli dars o'tishga majburdirlar. O'qituvchilar talabalar bilimini reyting tadbiri asosida o'z vaqtida baholab natijasini kafedra va dekanatga yetkazishlari talab etiladi.

Talabalar fanlarni chuqur o'rganishlari uchun o'qituvchilar o'z ma'ruza matnlarini va qo'shimcha adabiyotlarni talabalarga tavsiya etib, ularni mustaqil o'rganishlariga yordam beradilar. Kafedraning professor-o'qituvchilari dars berish

bilan birga talabalarga ma'naviy-ma'rifiy ishlarini ham olib boradilar. Kafedra mudiri darslar tahliliga kirib ularni o'tilish sifatini nazorat qiladi. Darsning o'tilishini kafedra majlislarga muhokama qilib yutuq va kamchiliklar ta'kidlab tegishli qarorlar bilan darslarni yanada sifatli o'qitish chora tadbirlarni kafedra a'zolari bilan birga ishlab chiqadi va yuqori organlarga (dekanat, rektoratga) yetkazib turadi. Kafedralarda asosan o'quv, ma'naviy - ma'rifiy, ilmiy tadqiqot hamda tadbirkorlik ishlari amalga oshiriladi. Talabalar dars jadvali asosida darslarga qatnashishlari majburdir. Ular o'zlari bilan birga darsga kerakli o'quv qurollarni olib kelishlari shart. O'tilgan va o'qituvchi tomondan mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarib borishlari kerak. Uzurli sabablar bilan darslarga qatnasha olmasalar tegishli ma'lumotlarni kafedra yoki dekanatga topshirganlaridan so'ng, dekanat buyrug'iga asosan qoldirayotgan fanlar soatlarni mustaqil ishlab qayta topshirishlari talab etiladi.

3. O'quv jarayoni 4 - bosqich bo'lsa, har bir bosqich ikkita semestr (o'quv yilining birinchi yarmi va ikkinchi yarmi) mavjud semestr oxirida talabalarning fanlaridan o'zlashtirish ko'rsatgichlari aniqlanadi va stipendiyaga tavsiya etiladi. O'zlashtira olmagan talabalar institutdan chetlashtiriladi. Talabalar o'quv jarayonida fanlarni o'zlashtirish bilan birga ilmiy to'garaklarga qo'shimcha kurslarga (til o'rganish, kompyuter savodxonligi) qatnashib o'z kasb mahoratini oshirib borish imkoniyatlari mavjud.

Talabalar o'zlari qizqqan mavzular bo'yicha ilmiy izlanishlarini ham olib borishlari mumkin. Buning uchun ularga tajribali pedagoglar rahbar etib tayinlanadi. Rahbar boshchiligida ilmiy mavzularga reja tuzilib, uni kafedra majlisida yoki to'garak yig'ilishlarida tasdiqlab olib o'quv jarayoni bilan birga ish olib boriladi. Bunday talabalarga kafedra va dekanat imkoniyat yaratib beradi.

Izlanishlar va qilingan ish natijalarini referat yoki hisobot tariqasida muhokama qilib topshirib boradilar.

Fakultet va kafedra qoshlarida talabalar ilmiy jamoalari TIJ va konstruktorlik byurolari TKB tashkil topgan. Bu jamoalar o'z ish rejalari tuzib, unga a'lochi va iqtidorli talabalarni a'zo qilib oladi. Bunday jamoa va byurolarga kafedralar yaqindan turib yordam beradilar va ularni ishlarini nazorat qilib boradilar.

ADABIYOTLAR: 3,14

SINOV SAVOLLARI:

1. Bakalavr va magistr tayyorlash uchun oliy o'quv yurtining vazifalari.
2. Oliy o'quv yurtlarida ichki boshqaruv haqida.
3. Talabalarning oliy o'quv yurtida kompleks faoliyati.
4. Iqtidorli talabalarni shakllantirish va xorijiy oliygohlarda o'qish imkoniyatlari.
5. Talabalarni madaniy dam olishlari uchun oliy yurti tomonidan amalga oshirilish bo'lgan ishlar.
6. Iqtidorli talabalarni ilmiy ish bilan shug'ullanishlari uchun oliy o'quv yurti tomonidan yaratilgan sharoitlar.

TEST SAVOLLARI

3.1. Vazirlik roziligiga asosan kafedra va fakultet tashkil etish huquqiga kim ega?

- A. Dekanat.
- B. Rektorat.
- C. Oliy ta'lim vaziriligi.
- D. Fanlar akademiyasi.

3.2. Kafedrani tashkil etishda nimalar talab etiladi?

- A. Mutaxassislikka bo'lgan talab.
- B. Moddiy texnika bazasi.
- C. Mutaxassis professor va o'qituvchilar soni.
- D. Barchasi to'g'ri.

3.3. Darslarni o'qitilishi sifatiga mas'ul...

- A. Rektorat
- B. Dekanat
- C. Kafedra
- D. Kadrlar bo'limi.

3.4. O'quv jarayoni (kunduzgi)....

- A. 4 bosqich 8 semestr
- B. 3 bosqich 9 semestr
- C. 5 bosqich 10 semestr
- D. 4 bosqich 12 semestr

3.5. Kafedra asosan qanday ishlar amalga oshiradi?

- A. Talabalar ahvolini o'rganish, dars soatlarini belgilash.
- B. O'quv ishlari va xo'jalik ishlari bo'yicha nazorat.
- C. O'quv, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, tadbirkorlik ishlari.

D. Talabalarning o'qish, tartib-intizom va darsga qatnashishlarini ta'minlash.

3.6. Kafedra mahalliy sharoitdan kelib chiqib o'quv rejaga fanlar hajmini qanchasini o'zgartirishi mumkin.

- A. 10-15%
- B. 15-25%
- C. 25-30%
- D. 30-50%

3.7. Barcha natijalar....

- A. Kafedra majlisida ko'rib chiqilib, dekanatga beriladi.
- B. Dekanat majlisida ko'rib chiqilib, rektoratga beriladi.
- C. Oliygo'h majlisida ko'rib chiqilib, kafedraga beriladi.
- D. Kafedra majlisida ko'rib chiqilib, o'qituvchilarga e'lon qilinadi.

4-MAVZU: Ilmiy kutubxonalar, “Axborot resurs markazlari” va ulardan foydalanish

Reja:

1. Oliy o'quv yurtlariga ilmiy kutubxonalar va axborot resurs markazlarini tashkil qilishning asosiy tamoyillari, asosiy tiplari, kutubxona turlari va ularning vazifalari.
2. Oliy o'quv yurtlaridagi “Axborot resurs markazlari” (ARM) -ilm, ilmiy, tarbiyaviy va madaniy maskanligi, alfavit va sistematik kataloglarning mohiyati, maqsadi va vazifalari, ulardan foydalanish qoidalari to'g'risida.
3. Elektron kutubxonalar va ulardan foydalanish.

“Axborot resurs markazi” - oliy ta'lim muassasalarining asosiy tarkibiy tuzilmalaridan biri hisoblanib, ta'lim va tarbiya jarayoni va ilmiy tadqiqotlarni kitoblari, hujjatlar, axborotlar va badiiy kitoblar bilan eng to'liq va samarali ta'minlaydi. ARM-bilimlar tarqatuvchi ma'naviy, intellektual muloqot va madaniyat markazidir.

ARM o'z faoliyatini olib borishda O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa Respublika qonunlariga, shuningdek oliy ta'lim muassasalarini boshqarish organlarining me'yoriy huquqiy hujjatlari, oliy ta'lim muassasalari nizomiga to'liq amal qiladi. ARM ning asosiy faoliyati quyidagicha:

1. Yakka tartibda va guruhli xizmat ko'rsatish usullarida yagona guvohnoma orqali o'quv zallarida, abonement va boshqa kitob berish tayanchlarida tabaqalashtirilgan xizmatni tashkil etish.
2. Kataloglar tizimi, kartotekalari va boshqa kutubxona axborot shakllari avtomatik ravishda elektron katalog va boshqa ma'lumotlar fazasidan foydalanib, kutubxona jamgarmasining tarkibi haqida to'liq ma'lumot beradi, kutubxonaning eng asosiy vazifasi olingan kitoblardan talaba o'qituvchilarni xabardor qilish va ularni kitob bilan ta'minlashdan iborat.

Kutubxonaning asosiy ishi 5 ta bo'limga bo'linadi.

1. Kitob bilan to'ldirish.
2. Kitobga ishlov berish.
3. Kitobxonga xizmat ko'rsatish.
4. Ma'lumot-bibliografiya bo'limi.
5. Qiroatxona.

Kitob bilan to'ldirish bo'limi kafedralardan tushgan talabnomalar asosida kitob magazinlari, nashriyot bosmaxona va turli joylarga buyurtma berib, kerakli adabiyotlar bilan jamgarmani boyitadi.

Kitobga ishlov berish bo'limi kitoblarga kartochka yozib, bo'limlarga tarkatadi. Kitobning kartochkalari 3 xil katalogga joylashtiriladi.

1. Xizmatchi
2. Sistemasi
3. Alfavit

Xizmatchi katalogda kitob haqidagi umumiy ma'lumot ya'ni muallifi, nomi, nashr yili va joy, betlari yozilib umumiy soni va qaysi, kimga tarqatilganligi ko'rsatiladi.

Sistemali katalogda-kutubxonada mavjud kitoblar ro'yxati fan ishlari bo'yicha kitobning avtori, sarlavxasi, nashr yili va joy, nomlari yozilib joylashtiriladi.

Berilgan ma'lumotlar ya'ni kitobning qaysiga tegishli ekanligi "Kutubxona bibliografik klassifikatsiyasi" kitobidan ko'rib olinadi.

Misol: Abzalov M. Matematik analiz.

22:1 Kitobi shu bo'limdan qidiriladi.

A. 11

Alfavit katalogi-kitobning avtori yoki sarlavxasiga qarab (shu sistemali katalogdan ma'lumot yozilib) joylashtiriladi.

Talaba yoki kutubxon kitobning qaysi sohaga tegishli ekanligini tanlagan taqdirda uning sarlavxasi va avtori orqali alfavit katalogidan qidiradi.

Uch xil katalogning asosiy mohiyati bir xil kutubxonadagi mavjud kitoblar haqida to'liq ma'lumot beradi.

Kitobxonga xizmat ko'rsatish bo'limi fakultetlarga qarab tarqatilgan. Har qaysi bo'limda o'ziga qaraydigan fakultet talabalari uchun kerak bo'lgan darslik kitoblar joylashgan va talaba o'qituvchilarga foydalanish uchun beriladi.

Ma'lumot - bibliografiya bo'limida oynoma va ro'znoma maqolalari kartotekasi, professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari kartotekasi mavjud va bular ham fan sohalariga ajratilib joylashtirilgan.

Oynoma va ro'znoma maqolalari kartotekasida, oynoma va ro'znomaga bosilib chiqqan fan sohasiga doir maqolaga xuddi kitoblardagidek ya'ni avtori, maqolaning nomi, qaysi sanada matbuotga chiqqanligi hamda qaysi betda ekanligi kartočkaga yozilib joylashtiriladi.

Professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari kartotekasida o'qituvchilarning ilmiy maqolalari qaysi matbuotda, qachon chiqqanligi yoki ilmiy kitob to'g'risidagi to'liq ma'lumot kartočkaga yozilib, kartotekada joylashtiriladi.

Kompyuter bo'limida sistemali katalogda joylashgan kartočkalar kompyuter xotirasiga kiritilgan. Yuqorida qilingan boshqa ishlar ham zamonaviy kompyuterlarga joylashtirilib xizmat ko'rsatish samaradorligi oshiriladi.

Qiroatxona - bu bo'limda kam nusxali noyob adabiyotlar joylashtirilgan bo'lib, talaba o'qituvchilar shu yerning o'zida o'tirib, kitobdan foydalanishlari kerak.

3. Hozirgi zamon texnika taraqqiyoti asri hisoblanadi. Biz o'ta qulay va o'ta tezkor mashinalar, ya'ni kompyuterlardan foydalanayapmiz. Kompyuter bu juda ko'p ma'lumotlarni o'z xotirasiga tez olish, qayta ishlash va uzoq muddat saqlash mashinasidir. Kutubxonaning elektron shakli faqatgina kompyuterlarga xos hisoblanadi. Elektron kutubxonaning quyidagi afzalliklari mavjud:

- kitoblar soni cheklanmaydi;
- kitoblar joy egallamaydi;
- kitoblarni topish ancha tez va qulay;
- adabiyotlarda keltirilgan jarayonlarni harakatli ravishda qurish imkoniyati mavjud;
- bir kitobni bir vaqtda barcha kompyuter foydalanuvchilari o'qishi mumkin;
- kerakli ma'lumotlarni kuchirib, nusxalab olish mumkin;
- 2 va 3 kitobdan bir vaqtda foydalanish mumkin.

Elektron kutubxona bilan ishlash.

Barcha tipdagi kompyuterlarda elektron kutubxona ochish mumkin.

Eski tipdagi kompyuterlarda agar Elektron kutubxona bor bo'lsa, unda "Norton Commander" panellarining biridan "biblio exe" yoki "Kutubxon exe" katalogini tanlaymiz. Bu katalogda harflar mavjud bo'lib, ularning ham har biri katalog hisoblanadi. Kerakli harfni kursor bilan tanlab "ENTER" bosiladi va shunda har katalogidagi kitob nomlari fayl ko'rinishida paydo bo'ladi va kerakli fayl ochilib, shu kitob bilan tanishish mumkin.

Kitobni varaqlash ko'rsatgichli surgich orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy kompyuterlarda esa "Moy kompyuter" undan esa "S" disk tanlanadi "S" diskdan esa "biblioteka" yoki "Kutubxona" fayl ochilib undagi harfli papkalardan kerakli papka ochiladi va undagi ichki papkalardan kerakli kitob tanlanadi. Amallar sichqoncha (monipulyator) orqali bajariladi.

Kitoblar varaqlash ham kursor orqali sichqonchani chap tugmasidan boshqariladi. Kutubxonani boyitish elektron kutubxonalarda ancha oson. Chunki, bir kompyuterda kitob kiritilsa, qolganlariga katta hajmli disk orqali nusxalash mumkin. Zamonaviy kompyuterlarda noyob kitobni skaner qilish orqali ham kiritish mumkin va undan so'ng boshqa kompyuterlarga ko'chirish yoki nusxalash mumkin. Elektron kitobni rangli su'ratlar harakatli tasvirlar bilan kengaytirish mumkin. Hozirda kompyuter imkoniyatlari kundan-kunga ortib bormoqda. Global elektron tarmoq "Internet" tashkil etilishi ko'pgina imkoniyatlar yaratdi.

Bizlarga Internet orqali elektron kutubxonalardan foydalanishning juda ham samarasi kattadir. Internet elektron kutubxonada jahon elektron kitoblar bilan tanishish imkoni mavjud. Jahon elektron kitoblarini o'qish uchun biz Internet bibliosayt bilan ishlay olishni o'rganishimiz kerak. Buning uchun Internet tarmog'iga ulangan kompyuter kerak bo'ladi. Unda bizga kitob topish quyidagicha amalga oshiriladi. Masalan: Olmoniya elektron kutubxonasi bilan tanishish uchun avval Internet bo'limiga kirilib, Sayt nomi ko'rsatilgan joyga www.bibl.de sayti teriladi va undan so'ng ENTER orqali zagruzka (yuklanish) ga ruxsat etiladi. Yuklanish tugagach ekranda harfli kitoblar jadvali teriladi va undan biri sichqoncha orqali tanlangan shu harfdagi kitoblar ro'yxati yozilgan ro'yxat beriladi. Kerakli kitob sichqoncha orqali tanlanib, so'ngra u ochib o'qiladi.

Hozirgi paytda jahon adabiyotlaridan foydalanish imkoni mavjudki, buning uchun faqatgina kompyuterni emas, balki jahon tillarini ham yaxshi bilishimiz kerak.

Bugungi kunda elektron kutubxonaga bo'lgan talab juda katta. Shu sababli kutubxonalarni kompyuterlashtirish asosiy oldimizdagi vazifalardandir.

ADABIYOTLAR: 1, 2, 3, 15.

SINOV SAVOLLARI

1. Kutubxona turlari va ularning asosiy vazifalari.
2. ARM dan foydalanish qonun qoidalari.
3. Alfavit va sistematik kataloglarning mohiyati, maqsadi va vazifalari.
4. Elektron kutubxonalar va ulardan foydalanish.
5. Elektron kutubxonalarning afzalliklari.
6. Kompyuter orqali chet-el kutubxonalaridan foydalanish.

TEST SAVOLLARI

4.1. Kutubxona bu.

- A. Bilimlar tarqatuvchi ma'naviy, ilmiy intellektual muloqot va madaniyat markazi.
- B. Darslik va ilmiy tezislar, olimlar ishlari jamlanmasi.
- C. Til o'rganuvchilar uchun chet tilidagi kitoblar majmui.
- D. Badiiy adabiyotlar, zamonoviy romanlar va she'riy kitoblar saqlanadigan joy.

4.2. Kutubxonaning asosiy ishi nechta bo'limga bo'linadi?

- A. 2ta.
- B. 4ta.
- C. 5ta.
- D. 8ta.

4.3 Kutubxonada qanday kataloglar mavjud?

- A. Xizmatchi, ketma-ket, alfavitli kataloglar.
- B. Xizmatchi, sistemali, alfavitli kataloglar.
- C. Sistemali, alfavitli, rakamli kataloglar.
- D. Alfavitli, rakamli, ketma-ket kataloglar.

4.4. Alfavit katalogida kitoblar qo'yiladi?

- A. Sarlavxasi bosh harfiga qarab.
- B. Nashriyot bosh harfiga qarab.
- C. Brinchi bo'limning bosh harfiga qarab.
- D. Birinchi avtorning bosh harfiga qarab.

4.5. Kataloglarning asosiy mohiyati.

- A. Kitoblarni qisqacha mazmuni bilan tanishtirish.
- B. Kitoblar soni va chiqarilgan muddatini ko'rsatish.
- C. Ilmiy kitoblar haqida ma'lumot berish.
- D. Barcha kitoblar haqida to'liq ma'lumot berish.

4.6. Ma'lumot-bibliografiya bo'limida.....

- A. Ilmiy va badiiy adabiyotlar
- B. Oynoma, ro'znoma maqolalari va ilmiy ishlar.
- C. Darsliklar va yangi kitoblar.
- D. Barchasi to'g'ri.

4.7. Qiroatxonaning vazifasi nima?

- A. Kam adadli va noyob adabiyotlardan foydalanish imkonini oshirish.
- B. Kitob o'qish va dars qilishga sharoit yasash.
- C. Maxsus uchrashuvlar va ilmiy kengashlar o'tkazish.
- D. Vaqtincha 2-3 kunga kitob olish va qaytarish.

4.8. Elektron kutubxona bu

- A. Kompyuter orqali ma'lumot topish va foydalanish.
- B. Kompyuter orqali kitob o'qish
- C. Kompyuter orqali obuna bo'lish
- D. Kompyuterda kitob muqovasini topish.

5-MAVZU. Talabalarning o'quv va ilmiy–tadqiqot ishlari, mustaqil ishlarini tashkil etish.

Reja :

1. Talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlari.
2. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
3. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar.

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida 1999 yil dekabr oyidan boshlab oliy o'rta yurtlari va ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy – tadqiqot faoliyatini kompleks baholashning reyting tizimi joriy etildi.

Vazirlik oliy va o'rta o'quv yurtlari hamda ilmiy tadqiqot ishlarining hisobot yilidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash to'g'risidagi Nizomi ishlab chiqildi va bu Nizomga muvofiq o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Umumiy qoidalarda keltirilishicha.

1.1. Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi (bundan keyin bo'lim) – oliy ta'lim muassasida iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy – tadqiqot, ijodiy faoliyatga jalb qilish va yo'naltirish, kafedra fakultetlarda bu borada olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi tashkiliy markazdir.

1.2. Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi – kadrlar tayyorlash miliy dasturini ro'yobga chiqarishning sifat bosqichi talabalaridan kelib chiqib, iqtidorli talabalarni aniqlash va tanlash, ularni fan sohalari bo'yicha ilmiy – tadqiqot faoliyatlariga yo'naltirish talabalarga o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishlari va rivojlantirishlari uchun ilmiy muhit va tashkiliy sharoit yaratish bu ishga ilmiy maktablar va olimlarning faol ishtirokini ta'minlash, kafedralarda olib borilayotgan dolzarb ilmiy – tadqiqot, ijodiy ishlarga talabalarni faol qatnashishga jalb etish kasbiy tayyorgarlik bo'yicha ularni ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini yo'naltirish, muvofiqlashtirish va boshqarish maqsadida tashkil qilinadi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining vazifalari.

2.1. Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi – iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish borasida quyidagi faoliyatlarni olib boradi:

- iqtidorli talabalarni aniqlash va tanlash, moyilligiga qarab, ularni maqsadli tayyorlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalar faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- talabalar ilmiy jamiyati faoliyatini yo'naltirish muvofiqlashtirish;

- ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarning intellektual salohiyatini davriy ravishda aniqlab borish;
- talabalarni ilmiy - tadqiqot, ijodiy ishlarga, ilmiy to'garaklar (laboratoriya)ga faol jalb qilish;
- Respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlar, fan olimpiadalari, seminarlar, tanlovlarda iqtidorli talabalarning ishtirokini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari «Umid» jamg'armasi, xorijiy fondlar grantlariga, nomdor stipendiyalarga tavsiya qilish;
- xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlariga iqtidorli talabalar va yosh mutaxassis-olimlarning borishiga tavsiya berish va tashkil etish;
- iqtidorli talabalar o'rtasida muntazam ravishda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga faol yo'naltirish borasida bo'lim tomonidan quyidagi vazifalar yuzasidan faoliyat olib boriladi:

- talabalarga o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishlari va rivojlantirish uchun ilmiy muhit va sharoit yaratish, bu ishga ilmiy maktablar va olimlar, professor-o'qituvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
- kafedralarda olib borilayotgan dolzarb ilmiy-tadqiqot, ijodiy ishlarga talabalarni faol qatnashishini ta'minlash;
- iqtidorli talabalarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash;
- kasbiy tayyorgarlik bo'yicha ularning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga keng ilmiy jamoatchilikni jalb qilish;
- iste'dodli talabalarni ilmiy-tadqiqot dasturlari asosida olib borilayotgan faoliyatlarga qatnashuvini ta'minlash;
- talabalar ilmiy anjumanlari, seminarlari, ilmiy-tadqiqot ishlari tanlovlarini, davra suhbatlarini, fan olimpiadalarini va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish.

Bo'lim iqtidorli talabalari bilan samarali ishlashni yo'lga qo'yish vazifalarini amalga oshirishda quyidagi boshqaruv faoliyatini olib boradi:

- kafedralarda iqtidorli talabalar bilan olib borilayotgan ishlarni tashkil qilish, nazorat qilish va boshqarish;
- talabalar ilmiy jamiyati, kichik akademiya faoliyatini tashkil qilish, muvofiqlashtirish, yo'naltirish va boshqarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarida va o'zlashtirishda yuqori natijalarida erishgan iste'dodli talabalarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- fakultetlar bilan kelishilgan holda xorijiy tillarni o'rganish informatsion texnologiyalarni o'rganish, mutahassislik hamda boshqalar bo'yicha maxsus va maqsadli kurslarni tashkil qilish;
- Respublika talabalar fan olimpiadasi I bosqichi (tegishli holda II bosqich)ni tashkil qilish va o'tkazish;
- «Eng yaxshi talaba ilmiy ishi» tanlovini tashkil qilish va o'tkazish;
- iqtidorli talabalar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va davriy ravishda yangilab borish.

Bo'lim quyidagi ishlar bo'yicha monitoring olib boradi.

- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha kafedralarning Fanlar akademiyasining tegishli tarmoq ilmiy muassasalari o'rtasida integratsiya jarayonining borishi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi quyidagi ishlar bo'yicha yordam ko'rsatadi:

- iqtidorli talabalarining Respublika xalqaro ilmiy anjumanlarda ilmiy ma'ruza bilan qatnashuvida;
- iqtidorli talabalarining ilmiy ishlanmalarini chop etishda hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda;
- talabalarga avtorlik guvohnomalarini, patentlarini hujjatlashtirishda;
- fakultetlarda ilmiy anjuman, seminarlar, tanlovlarni tashkil qilish, va o'tkazishda, yirik olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazishda;
- iqtidorli talabalar, ilmiy izlanuvchilar va yosh olimlarning ilmiy stajirovkalarini tashkil qilishda.

Bo'lim faoliyatini tashkil qilish.

1.1. Bo'lim o'z faoliyatini vazirlikning tegishli buyrug'i va mazkur Nizom asosida tashkil etadi hamda olib boradi.

Bo'limning faoliyat samaradorligini nazorat qilish – rektor zimmasiga, uning faoliyatiga javobgarlik – ilmiy ishlar va informatsion texnologiyalar bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatiladi. Bo'limga tegishli faoliyat yuzasidan fakultet dekanlari hamkorlik qilishi shart.

-Davriy ravishda olib borgan faoliyati haqida bo'lim belgilangan tartibda yuqori tashkilotlarga hisobot beradi.

Har o'quv yili boshida bo'lim ish rejasi OTM Ilmiy Kengashi muhokamasidan o'tgach, rektor tomonidan tasdiqlanadi.

Bo'lim samarali faoliyat olib borishi uchun rektorat tomonidan quyidagi tegishli sharoitlar yaratiladi:

- ish kabineti, kabinet va ish jihozlari ajratiladi;
- kompyuter majmuasi va telefon raqami (ichki va tashqi tarmoq) bilan ta'minlanadi.

Bo'lim o'z tarkibiga kiradigan "Talabalar ilmiy jamiyati" faoliyatini yo'naltiradi, muvofiqlashtiradi va boshqaradi.

Bo'limga iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida o'z faoliyatiga tegishli quyidagi ish qog'ozlarini yuritish tavsiya etiladi:

- nizom;
- ish rejasi;
- chorak, yillik hisobotlar;
- Oliy ta'limga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari va Hay'at Qarorlari, rektor buyruqlari;
- fakultetlar, kafedralar bo'yicha iqtidorli talabalar ro'yxati;
- iqtidorli talabalarga berilgan tavsiyalar va unga ilova hujjatlar hamda fotosuratlar;
- talabalar ilmiy anjumanlari, seminarlar, olimpiada, tanlovlar o'tkazilishiga oid hujjatlar;

- xat, arizalarni qayd etish kitobi.

Bo'lim o'z faoliyati davrida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Umid» jamg'armasi va boshqa mahalliy hamda xorijiy jamg'armalar bilan hamkorlik qiladi.

Bo'limning tashkiliy tuzilmasi.

Oliy ta'lim muassasi rektori iqtidorli talabalar bilan ishlash Bo'lim boshlig'ini ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlar safidan tayinlaydi.

Bo'lim boshlig'i OTM ilmiy kengashi tarkibiga kiradi. Mazkur Nizom asosida o'z tasarrufida bo'lgan xodimlar faoliyatiga javobgar.

Bo'limning tarkibiy tuzilmasi (shtati)ni bajaradigan ish hajmidan kelib chiqib, ta'lim muassasasi rektori belgilaydi.

Bunda bo'limning ba'zi funktsiyalari jamoatchilik asosida yoki o'rindoshlik asosida ham bajarilishi mumkin. Bo'lim tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bo'lim boshlig'i;
- talabalar ilmiy jamiyati kengashi Raisi (jamoatchilik asosida);
- metodist;

Talabalar uyi undagi tartib qoidalar haqida va uning nizomi institut rektori tomonidan tasdiqlanadi va u talabalar uchun asosiy yo'riqnima hisoblanadi

SINOV SAVOLLARI:

1. Talabalarning o'uv va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish tartibini tushintiring?.
2. Talabalarning mustaqil ishlarini qanday tashkil etiladi?
3. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar?
4. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi malakaviy tavsifnomalarini tushintiring?
5. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi mutaxassis tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini tushintiring?

6-MAVZU. Mutaxassislar tayyorlashda umumkasbiy fanlarining o'rni

Reja:

- 1.Mutaxassislar tayyorlashda umumkasbiy fanlarining o'rni.
- 2.Ixtisoslik fanlarining rivojlanish tarixi.
- 3.Qurilish va melioratsiya mashinalarining suv xo'jaligi majmuasidagi o'rni.
- 4.O'zbekiston sharoitida mashinalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari (Issiq ob-havo, cho'l zonalarida, sho'r yerlarda va botqoqliklarda ishlatish) .

1.Ma'lumki, har bir mutaxassisni (ta'lim yo'nalishi) tayyorlash uchun o'quv rejasidagi 1-blok gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, 2-blok matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bilan birgalikda 3-blok umumkasbiy fanlar va 4-blok ixtisoslik fanlar o'qitiladi. Umuman umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni puxta o'zlashtirish uchun va siyosiy ongini hamda fikrlash qobiliyati shuningdek etik – estetik tarbiyasini rivojlantirish maqsadida 1-2 blok fanlari o'qitiladi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlar malakali mutaxassislar tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni puxta o'zlashtirgan har qanday talaba o'z sohasi bo'yicha puxta bilimga ega bo'ladi va kelgusida ish jarayonida qiyinchiliklarsiz moslashib kasbiy fa'oliyatini na'munali davom ettira oladi.

Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga binoan quyidagi umumkasbiy fanlari hozirda o'qitiladi. 1)Chizma geometriya va injenerlik grafikasi, 2)Elektrotexnika va elektornika asoslari, 3)Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi, 4)Issiqlik texnikasi, 5)Materiallar qarshiligi, 6)Kompyuter grafikasi, 7)Qurilish mexanikasi, 8)Mexanizm va mashinalar nazariyasi, 9)Yonilg'i moylash materiallari, 10)O'zaroalmashinuvchanlik, standartlashtirish va texnik o'lchov, 11) Mashina detallari, 13) Qurilish materiallari va gruntshunoslik, 14) Suv xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti, 15) Traktor va avtomobil, 16) Nasos va nasos stantsiyalari, 17) Gidrotexnika inshootlari, 18)Qishloq xo'jaligi gidrotexnik melioratsiyasi va gidromeliorativ tizmlardan foydalanish, 19) Gidromelioratsiya ishlarini tashkil etish va texnologiyasi, 20)Ichki yonuv dvigatellari, 21) Melioratsiya va qurilish mashinalarini ta'mirlash. 22) Hayot faoliyati xavfsizligi va ishlab – chiqarish korxonalari talabi va kafedra moddiy texnika bazasi, talabalar istagidan kelib chiqib bir nechta tanlov fanlari ham o'qitiladi. O'qitiladigan fanlar o'zaro bir biriga uzviy bog'liq mutaxassislar tayyorlashda ularni o'qitish ketma-ketligi o'quv rejasida keltiriladi. Har bir fanning o'qitishning maqsadi va vazifalari bo'ladi, ya'ni fanning o'zlashtirish natijasida talaba nimalarni bilishi kerak va nimalarni amalga oshira olishi kerakligi mutaxassislikning Davlat ta'lim standartiga va fan dasturlarida keltiriladi. Umumkasbiy fanlar mutaxassislar tayyorlashda o'quv rejasidagi fanlarining 33-50% ni tashkil etadi. Umumkasbiy fanlar bloki matematik va tabiiy – ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'likni ta'minlashi, maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallashi uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi, modeli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.


2.Ixtisoslik fanlar malakali mutaxassislar tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlari quyidagilar:

1.Qurilish mashinalari

2.Melioratsiya mashinalari

3.Qurilish va melioratsiya mashinalaridan foydalanish va texnik xizmat servis va hakoza.

Melioratsiya mashinalari va Qurilish mashinalarining amalda paydo bo'lishini XIX asrning boshlari deb hisoblashimiz mumkin, chunki bu davrda bug' mashinalari paydo bo'lgan va keng qo'llanila boshlangan edi. Birinchi qurilish mashinalaridan dvigateli 15 ot kuchiga ega bo'lgan bug'li ko'p cho'michli yer kavlagich hisoblanib, bu mashina Peterburg temir yo'llari injenerlari instituti direktori I.A.Betankur rahbarligida 1812 yilda Ijorsk zavodida yasalgan.




6.1 –rasm.Ijorsk zavodining bug' bilan ishlovchi dunyodagi birinchi ko'p cho'michli ekskavatori (1812 y.)

1836-yilda Amerikalik mexanik Otis tomonidan eng muhim qurilish mashinalaridan biri bo'lgan bug' ekskavatori kashf etildi


Ekskavatorning ish unumdorligi 30 dan 80 m³/soat gacha bo'lib, xuddi shunday hajmdagi zamonaviy ekskavatorlardan 1,5...2 marta kam ish unumdorlikda, massasi bo'yicha ancha og'ir edi.

Otisning birinchi ekskavatorlari unchalik keng qo'llanilmadi va uning ixtiroi qanday muvaffaqiyatlar keltirishini bilmasdan uning muallifi vafot etdi.




6.2 -rasm. V.Otisning ekskavatori (1836 y.):
1- cho'mich; 2- tirsak; 3- ko'taruvchi zanjir; 4- ko'taruvchi baraban; 5- barabanning zanjirlari; 6- tirsakli surgich va tortgich; 7- xartum; 8- yurituvchi val yulduzchasi; 10- xartum osmasining tyagasi; 11- xartumni tutib turuvchi, aylanuvchi kolonna; 13- xartumni buruvchi zanjirlar; 14- yurish g'ildiraklari.

XIX asrning 50 yillarida Rossiyada yo'llarni tekislash uchun ot bilan tortiladigan yog'och(mola)lar qo'llanilar edi. XIX asrning 70 – yillarida esa AQSH da aravaga osilgan pichoq – ag'dargichli, tuproqni kesadigan va yon tomonga suradigan hamda pichog'i planda buriladigan birinchi greyderlar paydo bo'ldi. Tez orada arava temir g'ildirakli rama bilan almashtirilib, pichoqni ko'tarib tushiradigan mexanizm yaratildi, so'ngra gruntni pichoq – ag'dargichga ta'siri natijasida greyderning surilib ketishini oldini olish uchun g'ildirakli qiyalatgich mexanizmi qo'llanila boshlandi.



6.3 – rasm. Qo'l bilan boshqariluvchi buriluvchan cho'michli ot tortadigan birinchi g'ildirakli skreper (1773-y.)



6.4 – rasm.
Ot tortuvchi
birinchi greyder

Shunday qilib, ko'pgina mashinalarning ishlash jarayonida qo'l bilan ishlash jarayoniga o'xshash printsiplardan foydalanilar edi; ko'p hollarda bu mashinalar tirkkamalar bo'lgan edi. Mashinalarning ishonchli ishlashi uchun ularga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish lozim. Shuning uchun ham mashinalar yaratilgandan keyin ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlari shakllana boshladi. Shu tariqa Mashinalardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish fani shakllandi.

3.Ma'lumki qo'l mehnatini texnika zimmasiga yuklash uchun suv xo'jaligida turli xil melioratsiya va qurilish mashinalaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Ayniqsa yangi kanal va zovurlar qurish ularni ta'mirlashda mexanizatsiyadan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki texnika bilan bajarilgan ish qo'l mehnatiga nisbatan unumdorligi va ish sifati yuqori bo'ladi. Misol uchun 1000 ta inson tomonidan bajariladigan bir soatlik jismoniy ishlarni (kanal qazish) bitta ekskavator bir soatda bajarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi yer fondining 4.3 mln ga yaqini sug'oriladigan

yerlardir. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti 97% ni tashkil etadi, ushbu yerlarni sug'orish uchun har yili 57 km^3 dan oshiq miqdorda suv sarflanadi. Viloyatlar, tumanlar, fermerlar va dehqon xo'jaliklariga suvni yetkazib berish uchun gidromelioratsiya tizimlari mavjud, jumladan 61 ta suv ombori (jami sig'imi 15 km^3) 47 ming dona xo'jaliklararo va 118200 dona xo'jalik ichki gidrotexnik inshootlari, 28 ming km xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari, ulardan 10712 km betonlashgan 170 ming km xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari (ularda faqatgina 14% betonlashgan), 18 ming donadan ortiq suv o'lhagichlari ishlatilmoqda. Sug'oriladigan dalalarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 30 ming km xo'jaliklararo va 105 ming km xo'jalik ichki kollektor zovurlari (jumladan, yopiq-yotiq drenajlar 43 ming km, ya'ni 40 %), 3645 dona tik drenajlar mavjud. Sug'orish tarmoqlarining FIK 0.58 ga teng, ya'ni olinadigan suvning 42 % isrof bo'lmoqda, bu 25 km^3 suv hajmini tashkil etadi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda biz asosan texnikadan foydalanamiz. Shu sababli qurilish va melioratsiya mashinalaridan samarali foydalanish davr talabidir.

Sinov savollar:

1. Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlari haqida gapirib bering.
2. Umumkasbiy fanlarning mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni.
3. Respublikamizda mavjud sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati.

TEST SAVOLLARI

1. Ixtisoslik fanlar nechanchi blok fanlar hisoblanadi.
A) 4-blok
B) 2-blok
C) 1-blok
D) 3-blok
2. Umumkasbiy fanlar mutaxassislar tayyorlashda o'quv rejasidagi fanlarining necha %ni tashkil etadi
A) 33-50% ni
B) 20-25% ni
C) 35-40% ni
D) 50-60% ni
3. Respublikamiz bo'yicha necha km xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari mavjud.
A) 28 ming km
B) 35 ming km
C) 38 ming km
D) 25 ming km
4. O'zbekiston Respublikasida sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti necha 97% ni tashkil etadi.
A) 97% ni
B) 75% ni
C) 60% ni
D) 85% ni

5. Qurilish mashinalarining amalda paydo bo'lishi nechanchi asrlarga to'g'ri keladi
- A) XIX asrga
 - B) XX asrga
 - C) XVIII asrga
 - D) XVII asrga
6. Qo'l bilan boshqariluvchi buriluvchan cho'michli ot tordadigan birinchi g'ildirakli skreper nechanchi yilda yaratilgan.
- A) 1773-y.
 - B) 1815-y
 - C) 1950-y
 - D) 1865-y

7-MAVZU: Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda foydalaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalar. (2-soat)

Reja:

1. Yerlarni meliorativ holatini yaxshilashning moxiyati va uni o'tkazishning ehtiyoji.
2. Melioratsiya ishlarining rivojlanish tarixi.
3. Yerlarni meliorativ holatini yaxshilashda ilmiy texnika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
4. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va mohiyati.

1. Qishloq xo'jaligi ekinlaridan kafolatli hosil olish uchun avvalambor meliorativ tadbirlarni o'tkazish orqali olish mumkin. Chunki respublikamizda mavjud sug'oriladigan yerlarning 55% ga yaqini sho'rlangan hisoblanadi. Shunday ekan yerning meliorativ holatini yaxshilash uchun meliorativ tadbirlar asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29- oktyabrdagi PF-3932 sonli "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2008-yil PK-817 sonli "2008-2012 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" Davlat dasturi to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha respublikamizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Buxoro viloyatida misolida olib qaraydigan bo'lsak 2008-2012 yillarda 449,3 km uzunlikdagi magistral kollektorlarni rekonstruktsiya va qurish hamda 9548,5 km uzunlikdagi kollektor tarmoqlarini ta'mirlash-tiklash ishlari bajariladi.

Amalga oshirilgan meliorativ tadbirlarning samaradorligi.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2008-2012 yillarda bajarilgan rekonstruktsiya qilish va qurish hamda tizimli ta'mirlash tiklash ishlari natijasida 217,5 ming gektardan ortiq maydonda yer osti suvlari sathi pasaytirib, meliorativ holatni barqaror saqlash va 5,2 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning meliorativ xolatini tubdan yaxshilashga erishildi.

Sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanish darajasini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalar.

-2007 yilda kuchli sho'rlangan maydonlar 12,6 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga kelib 9,0 ming gektarni tashkil qildi, ya'ni 3,6 ming gektarga kamaydi.

Shuningdek, o'rtacha sho'rlangan maydonlar 2007-yilda 75,7 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga kelib 64,3 ming gektarni tashkil qildi, ya'ni 11,4 ming gektarga kamaydi.

Meliorativ kadastr bo'yicha qoniqarsiz maydonlar 2007-yilda 46,6 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga kelib 32,0 ming gektarni tashkil qildi, ya'ni 14,6 ming gektarga kamaydi.

Meliorativ holati yaxshi yerlar 2007-yilda 27,5 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga kelib 35,1 ming gektarni tashkil qildi, ya'ni 7.6 ming gektarga ko'paydi.

Umuman oldingi yillarda viloyatga melioratsiya tadbirlarini bajarish uchun har yili o'rtacha 1,5-2,0 mlrd. so'm miqdorida mablag' ajratilib kelingan bo'lsa, Dastur qabul qilingandan so'ng uning miqdori bir yilga o'rtacha 17 mlrd. so'mga yetdi.



7.1-rasm.Meliorativ tadbirlar hosildorlik garovi

2. Yer (tuproq) tirik organizmdir. Shuning uchun ham unga asosiy hayotiy faktorlar- suv, havo, ozuqa, yorug'lik va issiqlik zarur. Bu faktorlar optimal darajada bo'lsa, ekilgan ekindan ko'zda tutilgan hosilni olish mumkin. Yuqoridagi unsurlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Ulardan birining buzilishi qolganlarining ham izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, tuproqning suv rejimi asosiy faktorlardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib "melioration" – so'zi yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Demak, melioratsiya bu tashkiliy xo'jalik va sotsial iqtisodiy tadbirlar majmuasi bo'lib, noqulay gidrologik tuproq, gidrogeologik va agroiklim sharoitlarini yaxshilashga qaratilgandir. Uning asosiy maqsadi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishdir. Melioratsiyaning rivojlanishi juda qadim tarixga borib taqaladi. Arxeologlarning aniqlashicha bundan o'n ming yillar muqaddam daryo toshqinidan foydalanib yerlarni loyqa bostirish natijasida yer unumdorligini oshirish usuli qo'llanilgan. 1904 yildagi qazish ishlari natijasida Ashxobod shahri yaqinida eramizdan taxminan 8250 yil muqaddam sug'orish ishlari qo'llanilganligi aniqlangan. Sug'orish ishlari O'zbekiston, shu jumladan Xorazm viloyatida ham qadimdan qo'llanib kelingan. Daryodan suv sepoyalar orqali qurilgan to'g'onlar yordamida olingan. Chig'irlar, qovg'a orqali suv chiqarganlar, qorizlar qazib yerlarni sug'organlar. XV asrda Alisher Navoiy o'zining "Farxod va Shirin" dostonida kanal qazib yerlarni sug'orish ishlari olib borilganligini bayon etgan. Hozirgi davrda meliorativ tadbirlarning 40 ga yaqin turlari mavjud. Ularni vazifasiga qarab 3 ta katta guruhga bo'lish mumkin. Ya'ni, suv bilan bog'liq, tuproq melioratsiyasi va suv, havoning mexanik ta'siriga uchragan yerlar melioratsiyasi.

Chuchuk suv resurslari yer yuzida juda notekis taqsimlangan bo'lib, o'rta Osiyo mamlakatlarida juda katta suv tanqisligi mavjud. Vaholanki bu mamlakatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarning asosiy qismi yetishtiriladi.

O'zbekiston bo'yicha 4,206 mln. ga qishloq xo'jaligida ishlatib kelinayotgan sug'orma yerlar mavjud bo'lib, har bir kishiga 0,18 – 0, 20 ga yer to'g'ri keladi. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida 487 ming ga yerlar sug'oriladi. Suv nafaqat qishloq xo'jaligida balki, sanoat, kommunal xo'jalik sohalarida ham foydalanilganligi tufayli suv tanqisligi yanada kattaroq ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli suvdan tejab – tergap foydalanish maqsadida quyidagilarni joriy etish zarur:

- suv tejaydigan texnologiyani joriy etish;
- birlik yerga va birlik hosilga sarflanadigan suv miqdorini kamaytirish;
- kanallar tizimi FIK va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sizot suvlari sathini zax qochirish me'yori darajasida ushlab turish (drenaj).

Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash uchun potensial yuqori hosil olishimiz, buning uchun esa, agrotexnik, meliorativ tadbirlar bilan birga xo'jaliklarda moddiy, tashkiliy bazani ham mustahkamlash zarur. Potensial hosil ko'rsatkichi bo'lib, tuproq boniteti xizmat qiladi. Bunda begona o'tlar bosganligi, sho'rlanish darajasi va mahalliy, ma'danli o'g'itlar bilan ta'minlanganligi hisobga olinadi. Shuning uchun barcha yerlarda pasportizatsiya qilish ishlari bajarilishi zarur. Bundan tashqari sholi ekinlari maydonlarini qisqartirish, suv kam talab qiluvchi ekinlar ekish va adir, tog' oldi zonalarida bog', uzumzorlar barpo etish ham yaxshi samara beradi.

Keyingi yillarda yoppasiga yangi yerlar o'zlashtirish, Amudaryo va Sirdaryo suvining asosiy qismini yangi yerlarga berish natijasida o'zlashtirilgan va unga yaqin joylashgan maydonlar meliorativ holati keskin yomonlasha boshladi. Sug'orish rejimiga amal qilmaslik, sug'orish tarmoqlari texnik holati qoniqarsizligi va suv hisobi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida sizot suvlari sathi keskin ko'tarila boshladi. Bu o'z navbatida yerlar sho'rlanishiga sabab bo'ladi. 1997 yilgi ma'lumotlarga ko'ra respublika bo'yicha 1970,7 mln. ga sho'rlangan yerlar mavjud bo'lib, shundan 1117,7 mln. ga kam sho'rlangan, 611,2 ming. ga o'rtacha sho'rlangan va 241,8 ming. ga yerlar esa, kuchli sho'rlangandir. Yaqin kelajakda sug'oriladigan yerlar 4,8 mln ga yetsa shundan 3,8 mln. ga yer drenaj o'tqazishga muhtoj bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida melioratsiyaning o'rni beqiyosdir.

3. Qishloq xo'jaligi sohasida dehqon mehnatining samarasi va hosildorlik ko'p jihatdan irrigatsiya tarmoqlarining ahvoli va yerning meliorativ holatiga bog'liq. Keyingi yillarda respublikamizda kollektor va drenaj tizimlarini tiklash borasida olib borilgan keng ko'lamli ishlar tufayli tuproq unumdorligi oshib, paxtachilik, g'allachilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha sezilarli darajada o'sishga erishildi.

Respublikamizda melioratsiya ob'yektlarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash-tiklash ishlarini kompleks amalga oshirish maqsadida 2008-2012 – yillarga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Irrigatsiya tarmoqlari va yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda meliorativ texnikalar

katta ahamiyatga ega. Shu sababli bugungi kunda yuqori ish unumdorligiga ega bo'lgan zamonaviy meliorativ texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Bugungi kunda yerlarni tekislashda zamonaviy Lazer qurilmalaridan qo'llanilmoqda.

4. Davr o'tishi bilan barcha sohalarda yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar kirib kelmoqda. Albatta bu yangi texnika va texnologiyalar mavjud texnologiyalardan farq qilib, bajariladigan ishlarnig sifati unumdorligi uzoq muddatga xizmat qilishi ta narxi va hokozolar bilan afzalliklarda ega. Yuqoridagilarni inobatga olganda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llashda mutaxassis kadrlar muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli mutaxassislar tayyorlashda eng ilg'or texnologiyalarni shuningdek zamonaviy texnikalarni o'rgatish ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Masalan biz hozirgi paytda ham ishlab chiqarishimizda ayrim hududlarda o'tgan asrning 50-60 yillarida ishlab chiqarilgan texnikalardan foydalaniladi. Bu texnikalar birinchidan ma'naviy va jismoniy eskirgan inson omiliga ta'sir teuvchi talablarga to'liq javob bermaydi. Shuningdek yoqilg'i sarfi xizmat ko'rsatish ishlarining noqulayligi sababli bunday texnikalarning samaradorligi past. Bunday texnikalarning o'rnida zamonaviy texnikalar qo'llanilsa yuqorida keltirilgan kamchiliklar to'liq bartaraf etiladi. Mavjud texnika va texnologiyalar doimiy takomillashtirilib borilishi lozim. Har qanday eng zamonaviy texnika va texnologiyalarga ham ma'lum bir yutuqlari bilan kamchiliklari ham bo'ladi. Albatta yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda eng so'nggi takomillashgan zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'rgatish muhim rol o'ynaydi. Misol uhun hozirda qo'llaniladiga gidravlik ekskavatorlarning ish unumdorligi yuqori bo'lib barch qo'yilgan talablarga javob beradi (boshqarishning qulayligi, qisqa muddatda ish sikllarini amalga ishirilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning imkoniyatlarining mavjudligi, ko'pga chidamliligi va hokazo).

Sinov savollar:

1. Amalga oshirilgan meliorativ tadbirlarning samaradorligi haqida gapirib bering.
2. Respublikamizda melioratsiya ob'yektlarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash-tiklash ishlarini qanday davom etmoqda.
3. Suv xo'jaligidagi zamonaviy texnika va texnologiyalar.

TEST SAVOLLARI

1. O'zbekiston bo'yicha 4,206 mln. ga qishloq xo'jaligida ishlatib kelinayotgan sug'orma yerlar mavjud bo'lib, har bir kishiga qancha ga yer to'g'ri keladi.
A) 0,18 – 0, 20 ga
B) 0.03-0.07 ga
C) 0.15-0.30 ga
D) 0.25-0.28 ga
2. Hozirgi vaqtda meliorativ tadbirlarning nechaga yaqin turlari mavjud.
A) 40 ga
B) 20 ga
C) 15 ga
D) 25 ga

3. O'zbekiston bo'yicha necha mln. ga qishloq xo'jaligida ishlatib kelinayotgan sug'orma yerlar mavjud.

A)4,206 mln. ga

B)3.305 mln. ga

C)4.5 mln. ga

D)3.402 mln. ga

4. Respublikamizda mavjud sug'oriladigan yerlarning necha % ga yaqini sho'rlangan hisoblanadi.

A) 55% ga

B)35% ga

C)45% ga

D)50% ga

5. Melioratsiya – so'zi qanday ma'noni anglatadi.

A) Yaxshilash

B) Sug'orish

C) Almashlash

D) Tekislash

8-MAVZU:Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash sohasi bo'yicha tashkilotlar va korxonalar to'g'risida ma'lumot (2-soat)

Reja:

1.«Suv mash», «Suvsanoat mash OAJ», «Davsuv maxsus pudrat» davlat unitar korxonalari, «SANIIRI», «O'zMEI» ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari to'g'risida ma'lumotlar.

2.Qo'llaniladigan zamonaviy texnika, texnologiyalar va injenerlik hisoblari hamda yutuqlari, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, kelajakda olib borilishi rejalashtirilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari.

3. Hayot faoliyati xavfsizligi muxofaza qilishda qonunchilik asoslari.

4.Kafedralarda tajriba va amaliy mashg'ulotlarning mohiyati va ularni o'tish vaqtida hayot faoliyatini xavfsizligini saqlash.

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (O'zMEI). Bu ilmiy-tadqiqot instituti (SAIME) nomi bilan faoliyat ko'rsatgan.

Bu ilmiy tadqiqot institutida qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish yo'nalishi bo'yicha tadqiqot ishlari olib boriladi va natijalarini bevosita ishlab-chiqarishga tadbiq qilib boradilar.

Bu ilmiy-tadqiqot instituti 1931 yilda Toshkent shahrida 35 km uzoqda joylashgan Qovunchi poselkasi, hozirgi Yangiyo'l tumanida tashkil etilgan. Bu ilmiy-tadqiqot instituti 1954 yilgacha O'rta Osiyo paxtachilikni mexanizatsiyalash va elektrlashtirish stantsiyasi nomi bilan yuritilib kelingan (SaSMEX).

Bu institutni birinchi direktori E.V.Petrenko, undan keyin I.N.Yakovlev, A.E.Samoylov, P.V.Kajixin, M.S.Ganiyev, A.Xadiyev va boshqalar boshqargan.



8.1-rasm. Suvsanoatmash OAJ tomonidan ishlab chiqarilgan texnikalar.

1920-yilda Prof. V.F.Bulayevskiy O'rta Osiyo Davlat universitetining professori va o'qituvchilar gruppasiga kiritilgan va injener-melioratsiya fakultetini tashkil etishda aktiv qatnashgan. V.T.Jo'rin mamlakatimizning ko'zga ko'ringan gidrotexnikalaridan biri bo'lgan. U O'rta Osiyo suv xo'jaligi sistemasida dastlabki ishini boshlagan. Ayni vaqtda Turkiston Davlat universitetida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan, injenerlik va melioratsiya tashkilotchilaridan, keyinroq shu fakultet dekani vazifasida ishlagan. U 1927-yilda gidravlika va gidravlika inshootlari kafedrasining professori bo'ldi. Bundan tashqari V.D.Jo'rin hozir uning nomi bilan ataladigan O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tekshirish instituti (SANIIRI) ning tashkilotchisi va birinchi direktori bo'ldi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish, melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining mintaqalarda muvofiq melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonalarini tashkil qilindi va quyidagilar yangidan tashkil etilayotgan, melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonasining asosiy mezonlari etib belgilandi:

ustav fondining eng kam miqdori — 450,0 mln so'm;

moliyaviy barqarorlik va kamida 200,0 mln. so'm miqdorida bo'sh aylanma mablag'larning mavjud bo'lishi;

bajariladigan ishlar tannarxini zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish hisobiga kamaytirish;

melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi tadbirlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish;

soha bo'yicha oliy ma'lumotga va meliorativ ob'ektlarni qurish hamda ulardan foydalanishda kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan rahbarlik (shu jumladan rahbar) va muhandislik – texnik xodimlar, bosh mutaxassislariga ega bo'lish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xodimlar korxonadagi muhandislik – texnik xodimlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etishi kerak;

zarur miqdordagi meliorativ texnika, mashinalar, mexanizmlar va transportga ega bo'lgan texnika parkining mavjud bo'lishi.

Yangidan tashkil etilayotgan melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonasining ustav fondi 2008 yil oxirigacha shakllantirilishi kerak edi. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan sof foyda belgilangan tartibda korxonaning ustav fondini to'ldirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltiriladi;

Yangidan tashkil etilayotgan davlat unitar korxonasi tuzilgan kontraktida nazarda tutilgan ishlar hajmining kamida 60 foizini o'z kuchi bilan bajarishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi davlat unitar korxonalariga ularning muassislari tomonidan meliorativ texnika, mashina va mexanizmlar hamda boshqa asosiy fondlarning belgilangan tartibda berilishini ta'minlandi. Respublikamizdagi mavjud DUKlar viloyatlar kesimida quyidagicha.

8.1-jadval

Viloyatlar nomi	Soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4
Andijon viloyati	3
Buxoro viloyati	4
Jizzax viloyati	4
Qashqadaryo viloyati	4
Navoiy viloyati	2
Namangan viloyati	4
Samarqand viloyati	4
Surxondaryo viloyati	4
Sirdaryo viloyati	3
Toshkent viloyati	4
Farg'ona viloyati	4
Xorazm viloyati	5
Respublika bo'yicha	49

2. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishda zamonaviy yuqori ish unumdorligiga ega jahon andozalari talablariga javob beradigan texnika va texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Buni suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida olib qaraydigan bo'lsak hozirgi vaqtda juda yuqori ish unumdorligiga ega bo'lgan zamonaviy texnika va texnologiyalar qo'llanilmoqda. Masalan tekislash ishlarida zamonaviy lazer qurilmalaridan foydalanilmoqda, zovurlarni tozalashda samaradorligi yuqori bo'lgan ekskavatorlar ishlatilmoqda, yerlarni sug'orishda esa turli xil tejamkor texnologiyalar qo'llanilmoqda (tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish va hakoza).

Hozirda Respublikamizda suv xo'jaligi sohasida 1400 tadan ortiq ekskavatorlar hamda 410 tadan ortiq buldozerlar qo'llanilib kelinmoqda, shu jumladan, viloyatimizda 210 dan ortiq ekskavatorlar va 90 dan ortiq buldozerlar ishlatilmoqda.

Bugungi kunda texnikalarni lizing asosida olib, ulardan samarali foydalanilmoqda. Lizing asosida respublikamizda 1258 ta, viloyatda 127 ta meliorativ texnikalar yetkazib berilgan.

3. Atrof muhitni muhofaza etishning asosiy va umumiy jihatlari Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan bo'lib, bu asosiy qoida va yo'nalishlar qonunlarda rivojlantirilgan.

Atrof tabiiy muhit muhofazasi qadimdan insonlarning asosiy va birlamchi vazifalari qatoriga kirgan va ona tabiatni asrash insonlarning muqaddas burchi hisoblangan. Biroq, kishilarning ehtiyojlari ortib borishi natijasida ona tabiatdan foydalanishning turi va shakli o'zgarib bordi. Tabiatdan foydalanishning ayrim me'yorlari buzilishi natijasida insoniyat oldida hal qilinishi kechiktirib bo'lmaydigan muammolarni yuzaga keltirdi.

XX asr va biz yashayotgan asrning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri bu – atrof tabiiy muhit muhofazasi muammosidir.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda planetamizda har xil yoqilg'ilarni yoqish sababli har yili 10,1 milliard tonna kislorod sarf bo'lmoqda, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o'zlashtirilib foydalanilmoqda. Shuningdek, texnikaning, sanoat korxonalarining rivojlanishi ham atrof – muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Mehnatni muhofaza qilish – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat – salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya – gigiena va davolash – profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 21 dekabrda 161 – 1 raqamli O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqladi. Respublikamizda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va O'zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida” gi Qonunda mustahkamlangan.

Mehnatni muhofazasi bo'yicha me'yor va qoidalar ta'sir doirasiga qarab umumiy va tarmoqlarga bo'linadi. Hamma xalq xo'jaligi tarmoqlarida mehnatni muhofaza qilish talablari har xil bo'lib, umumlashtiruvchi umumiy me'yor va qoidalar mavjud. Bularga quyidagilar “Qurilish me'yorlari”, “Elektr jihozlarining tuzilish qoidalari”, “Yuk ko'tarish kranlarining tuzilishi va xavfsiz ishlatish qoidalari” va boshqalar kiradi. Tarmoq me'yorlari va qoidalari xalq xo'jaligining alohida tarmoqlariga ta'sir qilish talablarini, faqatgina shu o'ziga xos tarmoq o'z ichiga oladi. Bu qishloq xo'jaligida “Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va yig'ib olgandan keyin ularga ishlov berish xavfsizlik qoidalari”, “Qishloq xo'jaligida pestitsidlarni qo'llash, tashish va saqlash sanitariya qoidalari” va boshqalar.

1999 yilda O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Hamjamiyati hamda uning a'zo davlatlari o'rtasida hamkorlik va sherikchilik to'g'risida Bitim imzolandi. Ushbu Bitimning 54 – bandi atrof – muhitni va sog'liqni saqlashga bag'ishlangan hamda hamkorlikning 22 ta maqsad va sohalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston BMT, YHXTlarning xalqaro institutlariga qo'shildi, atrof – muhitni muhofaza qilish bo'yicha 9 ta konventsiyalar va kerakli protokollarni ratifikatsiya qildi, atrof – muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risida 12 ta xalqaro bitimlarni imzoladi.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida

1-modda. Fuqarolarning mehnatni muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet-el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatni muhofaza qilinishi huquqiga egadirlar.

2-modda. Mehnatni muhofaza qilish

Mehnatni muhofaza qilish — bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

3-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va qonunning qo'llanish sohasi

4-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati

5-modda. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish

6-modda. Jamoat birlashmalarining mehnatni muhofaza qilish muammolariga oid qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etishi

7-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar

8-modda. Mehnat muhofazasini me'yoriy ta'minlash

9-modda. Korxonalar va ob'ektlarni loyihalash, qurish va ishlatishda, ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash va ta'mirlashda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash

10-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash

11-modda. Mehnatni muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash

12-modda. Mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarishdan korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash

13-modda. Korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash

14-modda. Mehnatni muhofaza qilish xizmatlari

15-modda. Xodimlarni baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ijtimoiy sug'urta qilish

16-modda. Ishga qabul qilishda mehnatni muhofaza qilish huquqi kafolatlari

17-modda. Majburiy meditsina ko'riklari

18-modda. Mehnat faoliyati jarayonida mehnatni muhofaza qilish huquqining kafolatlari

19-modda. Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va ularga yo'l-yo'riqlar berish

20-modda. Mehnat sharoitlari hamda mehnatni muhofaza qilinishi to'g'risida xodimlarning axborot olishga doir huquqlari

21-modda. Xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

22-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati

23-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati

24-modda. Kasaba uyushmalarining xodimlarning mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqini himoya etish borasidagi huquqlari

25-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ta'minlanmagani uchun korxonalarning javobgarligi

26-modda. Mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish ahamiyatidagi mahsulotni tayyorlaganlik va sotganlik uchun korxonalarning iqtisodiy javobgarligi

27-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik

28-modda. Ishlab chiqarishda jabrlangan xodimlarga ziyon etkazganlik uchun korxonalarning moddiy javobgarligi

29-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxonaning moddiy javobgarligi

TEST SAVOLLARI:

1. O'zMEI ilmiy-tadqiqot instituti nechanchi yilda tashkil etilgan.

A) 1931- yilda

B) 1975- yilda

C) 1991- yilda

D) 1947- yilda

2. O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tekshirish instituti (**SANIIRI**) ning tashkilotchisi va birinchi direktori bo'lgan.

A) V.D.Jo'rin

B) G.M.Rudakov

C) A.Xadjiyev

D) M.S.Ganiyev

3. Buxoro viloyatida nechta Davsuvmaxsusudrat DUK mavjud.

A) 4 ta

B) 3 ta

C) 6 ta

D) 5 ta

4 Yangidan tashkil etilayotgan davlat unitar korxonasi tuzilgan kontraktda nazarda tutilgan ishlar hajmining kamida necha foizini o'z kuchi bilan bajarishi kerak.

A) 60% ni

B) 35% ni

C) 45% ni

D) 50% ni

5. Respublikamiz suv xo'jaligi sohasida jami nechta DUK lar faoliyat ko'rsatmoqda.

A) 49 ta

B) 55 ta

C) 39 ta

D) 42 ta

6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qachon tasdiqlangan.

- A) 1995 yil 21 dekabrda
- B) 1996 yil 11 noyabrda
- C) 1995 yil 15 dekabrda
- D) 1994 yil 18 sentyabrda

9-MAVZU: Respublikamiz ASM da ilmiy texnik taraqqiyot.

Reja:

1. Talabalar ilmiy jamoasi (TIJ), konstruktorlik byurosi seminar yoki to'garaklari haqida.
2. O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya taraqqiyotining qisqacha tarixi.
3. Injener gidrotexnik mutaxassis kadrlarni tayyorlash tarixi haqida.

1. Oliy o'quv yurtlarida talabalar o'qish bilan bir qatorda ilmiy ishlari olib borish imkoniyatiga ega. Har bir kafedra qoshida kafedra imkoniyatidan kelib chiqib talabalar ilmiy jamoatlari, to'garaklar, konstrutorlik byuolari tashkil etiladi. Ularga bevosita kafedra proffesor-o'qituvchilari rahbarlik qiladilar.

Guruhlardan eng iqtidorli ilm fanga qiziquvchi talabalar tanlov asosida tanlanib, ularga aniq mavzular bo'yicha ilmiy ishlar topshiriladi. Ilmiy ishlarni bajarish uchun rahbar tomonidan rejalar to'zilib, kafedra majlisi va talabalar ilmiy jamoasi yig'ilishlaridan muxokama qilib, tasdiqlab olinadi. Ushbu reja asosida talabalar darsdan bush faqatlarida ijodiy ilmiy ishlarini olib boradilar. Ularga ilm va ijodiy ish bilan shug'ullanishlari uchun kafedra va dekanat etarli sharoit va imkoniyat yaratib beradilar.

Ilmiy ishlarining borishini kafedra dekanat nazorat qilib boradi. Yil oxirida har bir talaba rahbarlari boshchiligida rejaasosida bajarilgan ishlarini hisobotini topshiradilar.

Bajarilgan ilmiy ishlar talabalar ilmiy jamoasida, kafedra yig'ilishida yoki fakultet ilmiy kengashida proffessor – o'qituvchilar va mutaxassislar ishtirokida muxokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilinadi. Ilmiy ish natijalarini ilmiy anjumanlarida ishtirok etib, anjuman ilmiy to'plamlarida yoki ilmiy jurnallarida chop qilib borish imkoniyatlari mavjud.

Ilmiy to'garaklarda talabalar o'zlari ijod qilgan ishlarini maket va modellarini yasab tajriba qilib ishlab chiqarishga taqdim etishlari mumkin.

Konstruktorlik byurosida talabalar ratsionalizatorlik taklif va ixtirolarni chizma yoki sxemalarni chizma qonun-qoidalar talabalariga mos ravishda ishlab chiqdilar.

2.Yerlarni irrigatsiyalash va melioratsiyalash butun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida intensivlashning zarur omillaridan biri hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, Respublikamizda suv tankisligi yil sayin tobora ko'proq sezilmoqda. Bu xol respublikamizda irrigatsiya va melioratsiyani yanada rivojlantirishni taqozo kilmokda. Zero, turmushning o'zi fan bilan amaliyot oldiga suvni mumkin kadar ko'proq tejash, mahsulot birligini etishtirishda suv sarfini butun choralar bilan

kiskartirish yangi, samarali, ko'proq foydali vosita va usullarni amaliyotga joriy etish vazifasini keskin qilib qo'ymoqda.

O'zbekistonning irrigatsiya sohasida erishgan yutuqlari sug'oriladigan dehqonchilik nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan juda katta xissa hisoblanadi. Bu borada to'plangan tajriba mamlakatimiz xalqlarining katta mulki bo'lib, Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikadan rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tadbiq etilmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya qurilishi qishloq xo'jaligida fan texnika taraqqiyotining muhim omilidir. Ayni vaqtda u ko'pgina muammolarni, avvalo ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda ilm fan oldida g'oyat muhim, ma'suliyatli va murakkab, ayni vaqtda sharaflı misli vazifalar turibdi, yirik suv xo'jaligi komplekslarini avtomatlashtirish vositasida boshqarish sohasidagi mana shunday boshqarishning nazariy asoslarini va shu maqsadlar uchun texnikaviy vositalarni ishlab chiqarish sohasidagi ishlarni kamaytirish, ana shunday muammolardan biridir, binobarin, qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish chog'ida ham, yangi agrotexnika va texnologiya usullarini ishlab chiqarishda ham, yangi dehqonchilik qurilmalarini yaratish chog'ida ham mana shu ko'rsatmalarga asoslanib ish tutish, xullas sug'oriladigan har gektar yerning samaradorligini oshirish sohasidagi hamma tadqiqotlarga har litr suvni tejam nuqtai nazaridan qaralishi lozim, bu irrigator va melioratorlarimiz, injener – texnik xodimlarimizning 1 – darajali vazifasidir, TIKXMINning tashkil etilishi respublikamizda yer suv islohotini muvaffaqiyatli amalga amalga oshirish, qishloq xo'jaligini va sug'oriladigan dehqonchilikni yanada rivojlantirish sharoitida qishloq xo'jalik texnika ta'limini yuksaltirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi, uning tashkilot opishidan yuqori malakali injener kadrlar tayyorlashda gidrotexnika, melioratsiya, qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish sohasidagi taniqli olimlar yirik mutaxassislar roli benixoyat kata bo'ladi, shulardan akademik A.N.Askochenskiy, professorlar V.V.Poslavskiy va N.A.Yanishevskiylarni alohida tilga olish joizdir.

Proffessor V.V.Poslavskiy Usmon Yusupov nomidagi katta Farg'ona kanali, Farxod gidrouzeli gidrotexnika inshootlari kompleksi va boshqa ko'pgina yirik irrigatsiya inshootlari muallifidir. Professor N.Y.Yanishevsiy sobiq ittifoq davrida irrigatsiya tarixida birinchi bo'lib Sug'orish smistemalari yordamida suvdan planli ravishda foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqdi va amalda joriy etdi. U avval O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Toshkent davlat milliy universiteti)ning injener melioratsiya fakultetida, so'ngra Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutida dars berdi. Bu yerda olim gidromelioratsiya sistemalaridan foydalanish kafedrasini tashkil etdi va uni boshqardi. Institutning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lgan N.A.Yanishevskiy mamlakatning sug'oriladigan qishloq xo'jalik zonasi uchun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda ulkan xissa qo'shgan.

Akademik M.V.Soblikov – institutda paxtachilikni mexanizatsiyalashtirish sohasida yirik mutaxassis bo'lgan. U o'z faqatida shpindelli paxta terish mashinalari nazariyasini yaratgan. Qishloq xo'jalik mashinalarining nazariyasiga

oid ko'plab ilmiy ishlar uning qalamiga mansubdir. M.V.Soblikovning ilmiy rahbarligida unlab kandidatlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

TIKXMII olimi, Sirdaryo suvidan foydalanish loyihasining, Qoraqum kanali birinchi loyihasining muallifi professor F.P.Morgunenko O'rta Osiyoda sug'orish ishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

U yaratgan sxemalardan hozirgi vaqtda ham O'rta Osiyoning yirik suv xo'jaligi ob'yektlarini loyihalashda foydalanib kelinmoqda. Prof. V.F.Bulayevskiy o'z umrining 30 yildan ortig'ini Mirzacho'lni o'zlashtirishga sarf etdi. 1920 yilda U O'rta Osiyo Davlat universitetining professori va o'qituvchilar gruppasiga kiritilgan va injener-melioratsiya fakultetini tashkil etishda aktiv qatnashgan. V.T.Jo'rin mamlakatimizning kuzga ko'ringan gidrotexnikalaridan biri bo'lgan. U O'rta Osiyo suv xo'jaligi sistemasida dastlabki ishini boshlagan. Ayni vaqtda Turkiston Davlat universitetida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan, injenerlik va melioratsiya tashkilotchilaridan, keyinroq shu fakultet dekani vazifasida ishlagan. U 1927 yilda gidravlika va gidravlika inshootlari kafedrasining professori bo'ldi. Bundan tashqari V.D.Jo'rin hozir uning nomi bilan ataladigan O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tekshirish instituti (SANIIRI) ning tashkilotchisi va birinchi direktori bo'ldi.

3. Sobiq ittifoq davrining dastlabki yillaridan O'zbekistonda mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berib kelingan. Davr talablaridan kelib – chiqib Turkiston davlat universitetida injener va agronom kadrlarni tayyorlash boshlangan. Shu davrlarda Respublikada o'rta ma'lumotli kadrlarga talab ham ko'p bo'lgan. Shu sababli 1921 yil Toshkent shahrida gidromeliorativ texnikum tashkil qilinib, gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash bo'yicha texnik-mexaniq va gidrotexnik mutaxassislarni tayyorlagan. Shu yillarda Nukusga qishloq xo'jaligi texnikumi ochilgan.

1927 yil Xiva va Sirdaryoda yangi gidromeliorativ texnikumlar tashkil qilindi. 1965 yil Andijon, 1967 yil esa Surxondaryo gidromeliorativ texnikumi tashkil etilib, texnik mexaniqlar tayyorlay boshladi. Keyinchalik Respublikamiz qishloq xo'jaligining barcha sohalari bo'yicha o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash maqsadida aksariyat viloyatlarda qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha texnikumlar tashkil etildi.

Respublikada bir faqatning o'zida qishloq xo'jaligini oliy ma'lumotli injener mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida oliy o'quv yurtlari ham tashkil kilina boshlandi. 1923 yil Turkiston universitetining texnika fakultetida ilk bor injener-texnik mutaxassislar tayyorlanib, ular qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, O'rta Osiyo yer-suv reformasini o'tkazishda aktiv ishtirok etdilar.

1929 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetidan injener-meliorativ fakultet bazasida alohida birinchi (SAXIPI) texnikaviy qishloq xo'jalik oliy o'quv yurti ajralib chiqdi. Bu ajralib chiqqan oliy o'quv yurti O'rta Osiyo paxta-irrigatsiya politexnika instituti nomi berilib, unda dastlab uchta: mexaniq, suv xo'jaligi va qurilish fakulteti mavjud edi.

1931 yilda SAXIPI suv xo'jaligi fakulteti bazasida O'rta Osiyo suv xo'jaligi injenerlari instituti tashkil etilib, O'rta Osiyo injener va texnik irrigatorlar instituti nomini oldi.

Yangi yerlarni ochish, ularni o'zlashtirish uchun yanada mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab osha bordi. Shu sababli 1934 yil oxiri ikkita O'rta Osiyo institutlari - Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash va irrigatsiyalash bo'yicha injener texniklar institutlari bazasidan (TIHMSX) Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti tashkil qilindi. Bu institut O'rta Osiyoda eng kuchli qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassis injener texniklarni tayyorlaydigan yagona oliygox bo'lib qoldi. Bu institut injener-texnik xodimlari bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib yuqori malakali pedagoglarni ham tayyorlay boshladi. 1936 yilda (TIHMSX)da aspirantura ochildi.

Ishlab-chiqarishda yangi texnikalar kirib kela boshladi, bu texnikalardan to'g'ri foydalanish maqsadida soha mutaxassislarini malakasini oshirishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan TIHMSX da 1945 yildan malaka oshirish kurslari tashkil kilina boshlandi. 1945 yildan sirtqi bo'limga ham mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

Hozirgi paytda Respublikamizda suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun TIKXMII, Andijon qishloq xo'jaligi instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

ADABIYOTLAR: 13,14.

Sinov savollar:

1. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirish Respublikamizda qanday tashkil qilingan?
2. Respublikamizda irrigatsiya va melioratsiya sohasini rivojlanish tarixi?
3. Yer-suv islohotlarini amalga oshirishda fan-texnikaning roli?
4. Oliy o'quv yurtlarida talabalar ilmiy ish bilan shug'ullanishlari uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
5. Respublikamizda injener-gidrotexnik mutaxassislar tayyorlash tarixi va hozirgi holati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|----------------------------|------------------------|
| 1. Agrosanoat majmuasi | 4. Irrigatsiyalash |
| 2. Talabalar ilmiy jamoasi | 5. Melioratsiyalash |
| 3. Konstruktorlik byurosi | 6. Gidrotexnik inshoot |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 5450300 "Suv xo'jaligi va melioratsiya ta'lim yo'nalishining Davlat standarti".
2. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. №1 2002 yil, (52-54 betlar). №2 2002 yil (58-59 betlar)
3. Karimov A.A., Imomov E.Z. va boshqalar. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. Toshkent. "Sharq", 2001.
4. 1998 yil mart - chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 11 sessiya materiallari.
5. O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 8 iyundagi 194 raqamli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash reyting tizimi to'g'risida" gi namunaviy nizom.
6. O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 1998 1-son.
7. F.Raximboyev, M.Hamidov "Qishloq xo'jalik melioratsiyasi". Toshkent, "O'zbekiston", 1998y.
8. E.S.Markov "Qishloq xo'jaligining gidrotexnik melioratsiyasi". M. "Kolos", 1981y.
9. Mimomaliyev "Melioratsiya asoslaridan ko'rsatmali qurollar va ulardan foydalanish". Toshkent, "O'qituvchi" 1988y.
10. A.S.Hasanov, M.Z.Sharfeddinov, A.S.Qaxxorov "Yer osti suvlaridan foydalanish". Toshkent, "O'zbekiston" 1988y.
11. S.I.Iskandarov, F.M.Raximboyev "O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiyaning rivojlanishi". Toshkent, "O'zbekiston", 1984.
12. Abdullayev O.A. "Kak rabotat v seti internet". Buxoro, "Ziyo-Rizograf", 2002y.
13. Y.Dadaboyev, M.Hamidov "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda mehnat muxofazasi" Toshkent "Mehnat" 1990 yil.
14. A.M.Muhamamedov va boshqalar "Tabiat muxofazasi va ekologiya" Toshkent "O'qituvchi" 1986 yil.

Internet saytlari

1. [www. Google.ru](http://www.Google.ru)
2. www. Ziyo.net.
3. www.technion.ac.il
4. www.tempus.uz
5. www.Yandex.ru

№	MUNDARIJA	Bet
1	Kirish.Fanning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining ta'lim dasturi to'g'risida	4
2	Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil qilinishi va talabalarining xaq xuquqlari.	11
3	Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti va uning Buxoro filialida malakali bakalavr va magistr mutaxassisliklarini tayyorlash yo'nalishlari to'g'risida	18
4	Ilmiy kutubxonalar, "Axborot resurs markazlari" va ulardan foydalanish.	21
5	Talabalarining o'quv va ilmiy –tadqiqot ishlari, mustaqil ishlarini tashkil etish.	25
6	Mutaxassislar tayyorlashda umumkasbiy fanlarining o'rni.	29
7	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda foydalaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalari.	34
8	Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash sohasi bo'yicha tashkilotlar va korxonalar to'g'risida ma'lumot.	38
9	Respublikamiz ASMda ilmiy texnik taraqqiyot	44

Hasanov Ibrohim Subxonovich



«Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash» kafedrası dotsenti

Hasanov Ibrohim Subxonovich, 1962 yilda xizmatchi oilasida tug'ilgan.

1985 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlar institutini «Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash» ixtisosligini tugatgan. 1991-1994 yillar O'zbekiston qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy tadqiqot instituti kunduzgi aspiranturasida o'qib, 14-dekabr 1994 yilda shu institut huzuridagi D-125.0121. ixtisoslashgan kengashda «Kichik maydonlarda ishlaydigan yer tekislagichning asosiy o'lchamlarini asoslash» mavzusida 05.20.01- Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash ixtisosligi bo'yicha bajarilgan dissertatsiyasini himoya qilib, 1995 yilda texnika fanlari nomzodi darajasini olgan. 75-ta ilmiy va uslubiy ishlari viloyat va respublika jurnallarida chop qilingan.

2010 yildan kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. «Sug'oriladigan yerlar mintaqasida tekislagich mashina qurollarining samarali qo'llash muammolari» (Problemi povisheniya effektivnosti primeneniya planirovochnix mashin i orudiy v zonax polivnogo zemledeliya) mavzusida doktorlik dissertatsiyasi uchun izlanishlar olib bormoqda. 2013 yildan "Meliorativ mashinalarga texnik servisni tashkil etishning maqbul variatlarini asoslash" mavzularida "Buxorodavsuvmaxsuspudrat" DUK tashkilotlari bilan xo'jalik shartnomasi asosida 10 mln so'mlik xo'jalik shartnomasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarmoqda.